

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

**5111100 – musiqa ta'lifi ta'lim yo'nalishi**

**4-kurs talabasi Avezova Nafisa Azim qizining**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**



**Mavzu: “5-7 sinflarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishning  
o'ziga xos xususiyatlari.”**

**Ilmiy rahbar:**

**dots. D.S.Do'stov**

**REJA:**

<b>КИРИШ.....</b>	<b>3-5</b>
<b>I-BOB. 5-7 SINF MUSIQA DARSLIKLARIDA BILIM MALAKASINING MEZONI.....</b>	<b>6-19</b>
<b>§1.1. 5-7 sinf musiqa darsliklarida tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar ro‘yxati tahlili va o‘quvchilar bilim malakasining mezoni.....</b>	<b>6-12</b>
<b>§1.2. O‘quvchi yoshlar xususiyatiga pedagogik va psixologik yondashuv .....</b>	<b>13-19</b>
<b>II-BOB. MUSIQA O‘QITISHNING MAZMUNI, MAQSADI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.....</b>	<b>20-52</b>
<b>§2.1. 5-7 sinflarda musiqa o‘qitishning mazmuni, musiqani idrok etish, uning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....</b>	<b>20-27</b>
<b>§2.2. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning musiqiy his-tuyg‘ularini rivojlantirish.....</b>	<b>27-52</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>53</b>
<b>ADABIYOTLAR.....</b>	<b>54-55</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>56-66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliги.** Respublikamizga yuz berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarning ko‘lami kun sayin keng quloch yozayotgan bir davrda yurtimizning kelajak давомчилари bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk madaniyatli inson qilib tarbiyalash o‘z dolzarbliги bilan alohida o‘rin tutadi.

Musiqa tarbiyasi nafaqat tarbiyaning asosiy va murakkab quollaridan biri bo‘lib, atroflicha go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan quollantiradi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa bilan inson hissiyotiga kuchli e’tibor ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy - g‘oyaviy tarbiyasining muhim vositasidir.

Musiqa pedagogikasi fanida san’at jumladan; musiqa, uni idrok etish masalalariga alohida e’tibor berib kelingan. O‘rtta asrlarda Sharqda musiqa fan sifatida shakllana boshlanganidan so‘ng ushbu muammo musiqashunos donishmandlarning diqqatini jalg etgan. Milliy musiqa madaniyatimiz tarixi sahifalari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘pgina allommalar musiqa tinglash, uni idrok etish, anglash uning inson ruhiyati, kayfiyati hamda aql zakovati rivojlanishida muhim ahamiyatga molik ekanligini uqtirib o‘tishgan. Musiqa tarixi sahifalarini varaqlaganimizda quyidagilarni uchratish mumkin:

Abu Nasr Farobiy musiqa tinglash uning inson ma’naviy va jismoniy rivojlanishidagi ahamiyatini ta’kidlab shunday yozgan: “Musiqa shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatini yo‘qotgan bo‘lsa tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatga bo‘lganlarni muvozanatini saqlaydi”. “Bolani juda yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotini tarbiyalash muhim-bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi” degan ilg‘or g‘oyani ilgari surgan. Abu Ali ibn Sino ham insonni ma’naviy yetuk, jismoniy baquvvat va har tomonlama barkamol bo‘lishligi uchun musiqa idroki hamda badantarbiyaning ahamiyatini ta’kidlab o‘tgan. Musiqa tinglash, uni idrok etish natijasida insonda turli ruhiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Abdurahmon Jomiy musiqa tinglovchilarda turli kayfiyat, ruhiy hollarni uyg‘ota olish imkoniyatlarini alohida qayd etib, ohanglar ta’sir kuchini quyidagicha ifoda etgan:  
a) shijoat va jasurlik uyg‘otuvchi ohanglar.

- b) xursandchilik hamda quvonch baxsh etuvchi ohanglar.
- v) qayg‘u va mungli uyg‘otuvchi ohanglar.
- g) g‘am, mayuslik aralashgan shodlik hamda zavq uyg‘otuvchi ohanglar.

Musiqani idrok etish, uning ruhiyatga ta’sirini ifodalash hazrat A.Navoiy musiqiy merosida ham alohida o‘rin egallaydi. Hazrat Alisher Navoiy ham musiqani inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi omil ekanligini yuksak baholagan. Kishi musiqani idrok etar ekan “ko‘ngil xush ohangda quvvat, ruh esa xush ovozdan ozuqa oladi”- deb ta’riflagan.

Demak, Sharq mutafakkirlari ijodiy merosida yosh avlod musiqa tarbiyasi idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirishga doir ilg‘or g‘oyalarni ko‘plab uchratish mumkin. Davrlar o‘tib bu fikr-g‘oyalar, boy tajribalar ta’lim –tarbiya jarayoniga tadbiq etilib musiqa tinglash, uni idrok etish muammolari musiqashunos, pedagok-olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topadi.

Shularni inobatga olgan holda bu borada ayrim fikr va mulohazalar yuritib pedagogik maslahatlar berish, tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida “5-7 sinflarda qo‘sish kuylash malakalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusini bitiruv malakaviy ish sifatida tanladik.

**Tadqiqot maqsadi:** 5-7 sinflarda qo‘sish kuylash malakalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari samardorligini oshirish.

**Tadqiqot obyekti:** umumta’lim maktabi “Musiqa madaniyati” darslari.

**Tadqiqot predmeti:** 5-7 sinflarda qo‘sish kuylash malakalarini shakllantirishning samardorligini oshirish jarayoni.

**Tadqiqot vazifalari:**

- 1) tadqiqotga oid ilmiy, tarixiy va badiiy manbalar bilan tanishish.
- 2) musiqa madaniyati darsi orqali o‘quvchi yoshlarda ong, milliy tafakkurni o‘stirishni rivojlantirish uchun samarali usullarni yaratish.
- 3) maqsadga muvofiq uni hayotga tatbiq etish.
- 4) sinov- tajriba ishlarini olib borish.

**Tadqiqot metodlari:**

- a) musiqaga oid ilmiy, pedagogik, metodik va badiiy adabiyotlarni tahlil qilish.
- b) ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish.

- v) tajriba-sinov ishlarini olib borish.
- g) ishimizga oid pedagogik kuzatishlarni olib borish.

**Tadqiqotning yangiligi:** Musiqa madaniyati darsi orqali 5-7 sinflarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishning o'ziga xosligi va o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirishga oid pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** 5-7 sinflarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarining samaradorligini oshirish yo'llari asoslangan. Tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktablarining musiqa o'qituvchilari o'z amaliy faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ish kirish,** 2 ta bob, 4 ta poragrif, xulosa va foydalanilagan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

# I-BOB. 5-7 SINF MUSIQA DARSLIKLARIDA BILIM MALAKASINING

## MEZONI

### §1.1. 5-7 sinf musiqa darsliklarida tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar ro‘yxati tahlili va o‘quvchilar bilim malakasining mezoni

Musiqa madaniyati fani dasturi va darsliklari bilan tanishganimizda o‘smir o‘quvchilar tinglashi uchun talaygina musiqa asarlari kiritilganligini ko‘rish mumkin. Bu asarlar turli xarakter, mazmun va hajmga ega bo‘lib, bolalarda tinglash madaniyati asoslarini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 5-sinf uchun bir o‘quv yilda har bir chorak uchun bolalar didiga mos quyidagi asarlarni tanlab olish mumkin:

1-chorak.

1. “Qalbimda” S.Jalil musiqasi. O‘zbek xalqcholg‘ulari orkestri.
- 2.“Poema” M.Bafoyev musiqasi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri
3. “Shodiyona” F.Alimov musiqasi.

4.“Boychechak” O‘zbek xalq qo‘shig‘i. Bolalar xori uchun Sh.Yormatov moslashtirgan

5. “Mirzacho‘l” (Terimchilar qismi deb nomlangan qismi, vokal simfonik syuita). S.Yudakov musiqasi.

2-chorak.

1. “To‘yona” To‘lqin Qurbonov musiqasi.
2. “Muhammas va ufor” M.Mahmudov musiqasi.
3. Uchinchi sinfoniyadan parcha M.Tojiyev musiqasi.
4. L. Betxoven 5-simfoniya.
5. “Navro‘z bayramiga” A.Mansurov musiqasi (uvertyura).

3-chorak.

1. “Oqqush ko‘li” P.Chaykovskining “Oqqush ko‘li baletidan” parcha.
2. “Tumaris” U.Musayev musiqasi.
3. “SharqAfsonasi” baletidan parcha. A. Mansurov musiqasi.
4. “Bahor valsi” Raqskuylari. M.Mirzayev musiqasi.
5. “Tohir va Zuhra” Musiqali dramasidan T.Jalilovmusiqasi.

4-chorak.

1. “Ruslan va Lyudmila” operasidan parchalar. M.Glinka musiqasi.
2. “Sehrli nay” operasidan “Qayerdan tarqalmoqda bu totli navo” qo‘shig‘i

V.A.Motsart musiqasi.

3. “Dilorom” operasidan ariya va duetlar. M.Ashrafiy musiqasi
4. “Maysaraning ishi” operasidan parchalar. S.Yudakov musiqasi
5. “Hayvonlar sultonii” operasi. A.Mansurov musiqasi.
6. “Aida va Rigoletto” operasidan parcha J.Verdi musiqasi

Beshinchi sinf o‘quvchilarining bilim va malakalar me’yori, boshlang‘ich sinflarda o‘zbek xalqmusiqasi, kasbiy musiqa, bastakorlilik va kompozitorlik ijodi haqidagi bilimlarini mustahkamlashlari bilanxarakterlanadi. O‘quvchilar yakkanavoz va cholg‘u ansambl hamda xalqcholg‘u orkestrini farqlay bilishlari, orkestr tarkibidagi asosiy cholg‘ular guruhibilan tanishishlari va bu badiiy jamoa misolida cholg‘ular oilasini bilishlari talab etiladi.

Yirik musiqa asarlarini tinglab idrok etish musiqa madaniyatini tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Vokal –simfonik asarlardan qasida,syuita janrlari bilan tanishishlari,atoqli kompozitorlar M.Burxonov, M.Nasimov, S.Yudakov va boshqalar ijodi bilan oshno bo‘lishlari nazarda tutiladi, jumladan, M. Burxonovning ijodiy faoliyati o‘zbek musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi to‘g‘risidagi qiziqarli suhbat dars mazmunini yanada oshiradi.

Shuningdek, o‘quvlar musiqali dramauning tarkibidagi raqs va balet janri bilan tanishishlari,o‘zbek musiqali drama san’atiga qiyosan Ozarbayjon musiqali dramasi san’atining buyuk namoyandas U. Hojibekovning “Arshin mololon” asarining bilishlari, musiqali drama janri ijodkorlari Manas Leviyev, Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Mirjalil Maxmudov, Sayfi Jalil kabi bastakorlarning ijodini bilishlari talab etiladi.

“Mumtoz musiqa” haqida ma’lumotlar berilganda quyidagilarni ta’kidlab o‘tisho‘rinli, jumladan “6-sinfda” yil mavzusi “Mumtoz musiqa” tinglash va badiiy tahlilqilish uchun o‘quvchilarga quyidagi asarlar tavsiya etiladi.

### **1-chorak.**

1. “Guluzorim” (Hoji Abdulaziz musiqasi)
2. “Bozurgoniy” (Hoji Abdulaziz musiqasi)
3. “Feruz 1”
4. “Savti suvora”
5. “Nasrulloi 1”
6. “Ushshoqi Samarqand”
7. “Sayqal” O‘zbek xalq kuyi.
8. “Gardushi Buzruk”

### **2-chorak**

**“Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari” deb nomlanadi. Bunda o‘quvchilarga:**

1. “O‘zbekiston ona-onajon” A.Mansurov musiqasi, A.Ko‘chimov she’ri,
2. “Ra’no” I.Akbarov musiqasi, S.Akbariy she’ri
3. “Yomg‘ir yog‘di” D.Omonullayeva musiqasi, U.Azimov
4. “Majnuntol”. Xalq musiqasi. YE.SHeryayev qayta ishlagan.
5. “Qo‘sishiq bizning do‘stimiz” YE.Shvars musiqasi kabi qo‘shiqlar tinglanadi va chuqur tahlil qilinadi.

### **3-chorak.**

**Sharq xalqlari mumtoz musiqasi namunalari deb nomlangan mavzuga esa quyida keltirilgan asarlar tinglanadi va ular to‘g‘risida fikrlar mavzuga bildiriladi.**

1. “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalining madhiyasi. D.Omonullayeva musiqasi U.Azim she’ri.
2. “Turk xalq kuylari”
3. “Quvnoqqizlar qo‘sishig‘i” Qirg‘iz xalq qo‘sishig‘i
4. “Atush” Uyg‘ur xalq qo‘sishig‘i
5. “Ko‘rmadim” D.Zokirov musiqasi, Navoiy g‘azali
6. “Nayrez” tojik xalq kuyi kabi asarlar shuningdek, Ovrupa klassik musiqasi, umumbashariy musiqa boyliklaridan namunalar tinglanib, idrok etish o‘quvchilar badiiy tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### **4-chorak**

**“Ovrupa klassik musiqasi bilan tanishuv” degan mavzuda o‘qituvchi quyidagi ishlarni amalgaoshiriladi. Bunda o‘quvchilarga:**

Shubertning “Forel”.

Motsartning “Figaroning uylanishi” operasidan parcha.

Shopenning “Mazurka”.

S.Jalilning 1-simfoniyasi.

N.Norxo‘jayevning “Uvertyura”lari kabi asarlar tinglash uchun dasturga kiritiladi.

Idrok etish uchun dasturga kiritilgan asarlar o‘qituvchi tomonidan texnik vositalar yordamida o‘quvchilarga eshittiriladi hamda tinglangan asar yuzasidan ularning badiiy taassurotlari bilib olinadi va muhokama qilinib o‘quvchilarning tinglangan asar haqida fikrlari o‘rganiladi.

O‘quvchilarga musiqa san’atida mahalliy uslublarini mahalliy shevalarga, mahalliy kiyim-kechaklar madaniyatiga qiyoslab o‘rganishlari viloyatlardagi mahalliy musiqa an’analar vamusiqaga merosdan turar joylarda mashg‘ur bo‘lgan mashshoqlar, xonandalar, dostonchilar yallachilar vaboshqalarini o‘rganishlari uchuno‘quvchilar bilan maxsus uchrashuvlar davra suhbatlari o‘tkazish lozim. Ular ustozona musiqa, uning xalqmusiqasidan farqlanish jihatlari (shakl, mazmun, ijro uslubi) haqida umumiyligi tushunchaga ega bo‘lishlari, ustozona musiqamohiyati, mumtozlik ahamiyatiga ega bo‘lgan badiiy yetuk, barkamol asarlar ekanligini, “Shashmaqom” ashula bo‘limiga doir asosiy yo‘llarni tinglab, doyra usullarini va kuy ohanglarini ajrata bilishlari kerak.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining o‘ziga xosligi, turkum jihatdan “Shashmaqom”ga o‘xshamasligi, (ya’ni yaxlitturkum emasligi) alohida ahamiyatga ega bo‘lgancholgi, kuy va ashula yo‘llaridan iboratligi haqida umumiyligi tushuncha, “Yovvoyi maqom”iborasi va uning mazmun mohiyati, maqomlarning mashhur surnay yo‘llar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak.

O‘quvchilar Xorazm maqomlaring umuman, “Shashmaqom” turkumi qolipiga mos kelishi, ulardagisi har bir maqomda ham ikki-bo‘lim-cholgi, va ashula yo‘llarining mavjudligi hamda o‘ziga xosligi, haqida tushunchaga ega bo‘lishlari mashhur xalq kuy va qo‘sishlari, katta ashula doston ashulalarning ijro usullarini ovozni ishlata olish va qochirimlar) orqalifarqlay olishlari talab etiladi.

7-sinf yil mavzusi: “Xalqmusiqasining mahalliy uslublari”. Maqomlar haqida umumiy tushunchalarga bag‘ishlanadi. Bu nixoyatda qiziqarli mavzu hisoblanadi. Chunki har bir viloyatning o‘ziga xos san’ati, ijrochilik uslubi, urf-odati musiqiy an’analari mavjud.

### **1-chorak.**

#### **Mavzu: “Qashqadaryo-Surxondaryo”, “Samarqand-Buxoro” voxalarining musiqiy uslublari haqida ma’lumot beriladi.**

Bu mavzuga oid quyidagi asarlar tinglanib idrok etiladi va tahlil qilinadi.

1. “Do‘ppi qo‘shig‘i” (Kim oladi shuginani-ya)
2. “Alpomish” dostonidan qo‘shiqlar
3. “Go‘ro‘g‘li” dostonidan qo‘shiqlar
4. “Samarqand ufori”
5. “Saname”
6. “Samarqand yor-yori”
7. “Buxoro yor-yori”
8. “Buxorocha mavrigi”
9. “Boljuvon” Buxoro cholg‘u kuyi
10. “Buxorocha” xalq kuyi.

### **2-chorak:**

#### **Mavzu: Farg‘ona-Toshkent hamda Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv.**

Musiqqa tinglash.

1. “Tanovor” (turli variantlar)
2. “Qo‘shchinor” 1.2
3. “Shodiyona” 1-5 qismlar
4. “Oyijon” (lapar)
5. “Qari navor”
6. “Lazgi” (xalq kuyi)
7. “Surnay lazgisi”
8. “Ganji Qorabog”
9. “Qala bandi” xalq kuyi

10. “Yuz bir” xalq kuyi
11. “Ovozing seni” Xorazm dostonidan parcha
12. “Ufori Ganji Korabog”
13. “Savti Suvora I”

### 3-chorak

#### Mavzu: “Maqom. Shashmaqom”

siqa tinglash	ula yo‘llari
lg‘u yo‘llari Garduni Buzruk”	Nasrulloyi” Mulg‘uchai Buzruk”
Tasnifi Buzruk”	Buzruk” mug‘ulchasing qashqarchasi
Tarje‘i navo”	Buzruk mug‘ulchasing soqiynomasi”
Muhammasi bayot”	Mug‘ulchai dugoh”
Samoi dugoh” “Dugoh” maqomidan	Mug‘ulchai dugoh talqinchasi” Mug‘ulchai dugoh qashqarchasi” Mug‘ulchai dugoh soqiynomasi”

### 4- chorak

#### Mavzu: “Xorazm maqomlari, Xorazm-Toshkent maqom yo‘llari”

Musiqa tinglash	Ashula yo‘llari
Cholg‘u yo‘llari. 1. Munojot (1-4) 2. Segoh (cholg‘u yo‘li) 3. Cho‘li Iroq 4. Maqomi Rost 5. Peshravi gardun 6. Panjgox-Rost maqomidan 7. Peshrav-Segoh maqomidan 8. Paxta zarb. Dugoh maqomidan 9. “Peshravi Iroq”- Iroq maqomidan 10. “Nasrullo.1” Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u yo‘li	1. Dugoh Husayn 2. Segoh (ashula yo‘li) 3. Toshkent Iroq 4. Ushshoq (Qaro ko‘zim) 5. Ufor 6. Suvoriy (“Dugoh” maqomidan) 7. Suvoroi Segoh (“Segoh” maqomidan) 8. Panjgohi Buzruk (“Buzruk maqomidan”) 9. Muxammasi bayot (“Navo” maqomidan)

7-sinfda o‘smir-o‘quvchilar O‘zbekiston sarhatida mumtoz musiqani ko‘p tarmoqli va mahalliy an‘analariga ega ekanligi hamda ularning o‘zaro o‘xshash, shu bilan birga o‘ziga xosligi haqida tushunchaga ega bo‘lishlari lozim. Ular zamonaviy musiqa

ijodiyoti, bastakorlikijro va ijod sohalarning mushtarakligini ta'minlovchi ijodkorlik namunasi ekanligi hamda qadimiy-amaliy an'analarning yangi zamonaviy sharoitda davom ettirilishidan xabardor bo'lishlari, bunda usul, kuy omillarning yetakchi badiiy ifoda vositasi ekanligiga e'tibor berishlari, bastakorlik ijodida mahalliy musiqa an'analaringning badiiy yuksaklik kasb etishini, kompozitorlik ijodining yetuk namunalarida milliy musiqa, lad-ohanglari va bastakorlik an'analaringning badiiy mujassam ekanligini bilishlari talab etiladi. Sharqxalqlari musiqa madaniyatida mohiyatan bir-biridan o'zaro o'xhash ijod turlari mavjudligi, musiqaning bu xalqlar ma'naviy hayotida tutgan o'rni, cholg'ularning turdoshligi, ijrochilik san'atidagi o'xhash mavqeい, aksariyat musiqa janrlarining mohiyati va nomlanishdagi umumiylidagi (masalan, maqom, muqom, rubob-rebob, ud, ad, g'ijjak-kamoncha, doira, daf, surnay, zarpe, tanbur, tambur, dutor, setor, shashtor, chortor, do'mbira va boshqalar) xabardor bo'lishi kerak. Ovrupa mumtoz musiqasining nota yozushi an'anasiga bog'liq kamol topganligini, G'arbiy Ovrupa professional musiqa san'atiga mumtoz musiqa iborasining qo'llanilish ko'lamenti o'quvchilar bilishi lozim. Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida o'quvchilarning tinglash, badiiy idrok etish faoliyatini uyushtirish o'qituvchidan musiqiy-pedagogik mahoratni, tajribani talab etadi.

Musiqa o'qitish metodikasi fani taraqqiyotiga murojaat etsak, shu narsaga guvoh bo'lish mumkinki, uzoq yillar davomida sho'ro tuzumi sharoitida musiqa tinglash darsning asosiy bosqichi bo'lishiga qaramay, unga munosabat yetarli darajada bo'limgan. Jumladan, bu faoliyat turi darsning so'ngi daqiqalarida o'tkazilib, ko'p hollarda "musiqiy topishmoq" shakli va mazmuniga ega bo'lar edi. O'qituvchi ayrim qo'shiq va kuylardan qisqacha qismini ijro etib, uning nomini o'quvchilardan so'rab olib, "bosqichni tashkil etdim, musiqa tinglash amalga oshirildi", deb, hisoblar edi. Natijada o'tgan asrning 70-80 yillar musiqa o'qitish metodikasida o'quvchilar uchun musiqa tinglash faoliyatlarida jiddiy kamchiliklar ro'y berganligi kuzatildi. Bu esa o'sha davr yoshlarida musiqa madaniyatini tarbiyalashda ayrim kamchiliklar yo'l qo'yilganligidan dalolat beradi.

## **§1.2. O‘quvchi yoshlar xususiyatiga pedagogik va psixologik yondashuv.**

Hozirgi psixologik-pedagogik, fiziologik adabiyotlarda V-VII sinf o‘quvchilari “o‘smir” yosh sanalib murakkab davr hisoblanadi. Bunga ilmiy va keng amaliy kuzatuv natijalari hamda tajribalari asosida yig‘ilgan ma’lumotlar guvohlik beradi. Mazkur davrda bola organizmida jismoniy rivojlanishning kuchayib borishi sezilib organizmning umumiyligi o‘sishi jumladan qomat, qon aylanish tizimi rivojlanishiga qaraganda ancha intensiv bo‘ladi. Natijada miya kerakli ozuqani ololmay, tez-tez charchash toliqish, kayfiyatning o‘zgarib turish holatlari ro‘y berishi kuzatiladi.

Bu yoshda bolalar katta yoshli kishilar ota-onalari, o‘qituvchilarning yurishi, kiyinish, bir-biriga munosabati, o‘zlarini qanday tutishlarini kuzatib borishadi. Ular o‘zlarini katta, mustaqil kishi sifatida tasavvur etishadi o‘z-o‘zini, boshqarishga mayli kuchayadi. Shuni ta’kidlash o‘rinligi, VI-VII sinf o‘quvchilari fiziologik va psixologik jihatdan bir- biriga yaqin turadilar. Ular uchun o‘spirinlik davri boshlanib, tabiatga va hayot qonunlariga jiddiy qiziqish boshlanadi. Organizmda faol o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi natijasida ular o‘zlarini katta kishi qilib ko‘rsatishga, hayotda o‘z o‘rinlarini belgilashga urinadilar. Natijada kattalar munosabatiga jiddiy e’tibor beradilar, ular bilan bevosita muomalaga kirishganda bachkana bo‘lmaslikka harakat qiladilar. Buni hisobga olmagan o‘qituvchi dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ayrim bolalar bilan nizo chiqarishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchihar bir o‘quvchini alohidao‘rganishi, ular bilanto‘g‘ri, jiddiy va do‘stona munosabatda ish tutishi lozim. Ularning qiziqishi ma’naviy ehtiyojini hisobga olmog‘i zarur. Aks holda o‘quvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Bu davrda bolalarda mutatsiya (ovozung o‘zgarishi) davri ham boshlanadi. Bu jarayonda o‘g‘il va qiz bolalarda ovoz apparatining buzilishi kuzatilganda, ular bir-biridan farqlanadi. O‘g‘il bolalarda ovoz registr jihatidan bir oktava pasayib yo‘g‘onlashadi, qiz bolalarda esa registr o‘zo‘rnida qolib, ovoz kuchi, tembrda moyilligi deyarli saqlabqoladi. Shu boisdan o‘g‘il bolalarda mutatsiya faol va sezilarli darajada, qiz bolalrda esa osoyishta hamda bir tekis amalga oshishi kuzatiladi. Natijada o‘g‘il bolalar qo‘shiq aytganda ba’zan kuy ohangiga tushaolmaydilar, qiynaladilar yuqori notalarni kuylashga murakkabliklarga duch kelishadi. Bu davrda o‘g‘il bolalar

ovozi shartli ravishda. Qizbolalar ovozi esa bolag‘atli Xotin-qizlar tipiga asta-sekin o‘ta boshlaydi.

O‘g‘il bolalar tomog‘ida ovoz boyamlari yo‘g‘onlashadi, qizaradi, atroflarida ba’zan shishlar paydo bo‘ladi. Natijada ovoz diapazoni (kengligi), qisqarib yuqori pardalarda kuylash og‘girlashadi, tez charchash holatlari sodir bo‘ladi. Shu bois mutatsiya davrida o‘g‘il va qiz bolalarda qo‘shiqo‘rgatish jiddiy ishi mas’uliyatini talab etadi. Qo‘shiqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ovozlarni asrab avaylagan holda o‘rgatilishi lozim. Ovozlarni partiyalarga aniq ajratib, ikki ovozda qo‘shiq kuylatish ovoz tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

O‘smir-o‘quvchilar bilan dars jarayonida musiqa tinglash, idrok etish hamda uning badiiy jihatdan tahlilini amalga oshirish uchun, albatta musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi 5-7 sinf dasturiga faoliyatning ushbu bosqichi uchun belgilangan ta’lim mazmuni musiqiy o‘quv materiallarini bilishi, ularni puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. Ishning navbatdagi sahifalarida, 5-7 sinf musiqa dastur va o‘quv darsliklarida tinglash, idrok etish uchun tavsiya etilgan musiqa asarlari ularning ro‘yxati, mazmuni, tarbiyaviy imkoniyatlari xususida fikr va muloxazalar yuritamiz.

Mustaqillik sharoitiga musiqa madaniyati fani darslarida musiqa tinglash, uni idrok etish yetakchi faoliyat turi sifatida muhim rol o‘ynaydi va u musiqa madaniyatini tarbiyalashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa tinglash, uni idrok etish ikki holatda amalga oshiriladi. Birinchi holatda ma’lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy –pedagogik tahlilqilinadi. Idrok etishorqali asarni tushunish uning musiqiy xususiyatlari jumladan, janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi hamda badiiy mazmuni haqida ma’lum bilimlarga ega bo‘linadi.

Ikkinci holatda musiqa asarlari avval tinglanib (idrok etilib), so‘ng u yoki bu faoliyat turiko‘proqtakrorlashorqalimustahkamlanadi. Uning badiiy mazmuni xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi. Masalan o‘rganiladigan qo‘shiq avval o‘qituvchi ijrosida yoki texnik vositalar orqali bir ikki marta tinglanadi, so‘ngra asarni tushunish uning musiqiy xususiyatlari ifodasi o‘rganiladi. Ko‘pincha asar qator faoliyatlar turitinglash, kuylash, raqsharakatlari uygunligida o‘rganiladi. Bunday mashg‘ulot usuli asarni puxta idrok etish va ayni holda kompleks malakalarning rivojlanishi uchun imkon yaratadi. Musiqa madaniyati darsida barcha

faoliyatlar muayyan mavzu zamirida o‘zarobog‘lanadi, natijada darsning mantiqan yaxlitligi amalga oshiriladi.

Shuni alohida e’tiborga olmoq joizki – musiqa idroki vamusiqi savodi faoliyat turlari o‘zarouzviy bog‘lanish bilanqolgan barcha faoliyatlar amaliyotida yetakchilik qiladi. Zero, tinglash va bu faoliyat uchun tanlagan o‘quv materiallari ta’lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatları jarayonida o‘rganish bilan birga, cholg‘uchilik, musiqali ritmikharakatlar hamda ijodkorlik faoliyatları bilanhamhar tomonlama o‘zlashtirish, musiqiy tavsiflarini ushbu faoliyatları vositasida ifodalash imkoniyatlari ham yaratiladi.

Shunisi muhimki, musiqa tinglash jarayonida o‘quvchilar yakkanavoz va jo‘rovozlikni ajrata bilish, ansamblhamda orkestr ijrosini farqlay bilishi, sozlar, ular tusini ajrata olish musiqiy did va idrokni rivojlantirish nazarda tutiladi. O‘zbek qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash faoliyati amalga oshiriladi.

Musiqa madaniyati darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida o‘zarobog‘lanadi. Shunisi ahamiyatlici darsni mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqa tinglash darsning boshidan oxirigacha amalga oshiriladi. Agar bolalar musiqa sadolari asosida sinfga kirsalar, demak ular mashg‘ulotni musiqani idrok etish bilan boshlaydilar. Qo‘sish aytsalar uni avval eshitib idrok etib, so‘ng o‘rganib jamoa bo‘lib kuylaydilar. Raqsga tushganda esa musiqani tinglab borib uning badiiy ifodasini raqsharakatlari vositasida tasvirlaydilar. Darsning “musiqa tinglash” deb nomlangan zaruriy faoliyat turi muayyan asarni o‘qituvchi ijrosida yoki texnik vositalar yordamida diqqat-e’tibor bilan tinglash va uni badiiy jihatdan tugal idrok etish nazarda tutiladi. Faqatgina musiqa tinglasho‘quvchilarni chin ma’nodagi keng musiqa olamiga olib kirishi mumkin. Chunki qo‘sish kuylaganda ular faqato‘z ovozlari imkoniyatlari darajasida faoliyat ko‘rsatishadi. Musiqa tinglashga doim asarlar turli janrga xos xilmal-xil bo‘lmog‘imaqsadga muvofikdir. Shu boisdan dasturga o‘zbek xalqmusiqasi, kompozitorlar tomonidan yaratgan asarlar qatorida ayrim rus va g‘arb klassik kompozitorlarning asarlari kiritilgan. Maktablarda tinglashga doir maxsus fonoxrestomotiya hamyo‘qligi sababli o‘qituvchi mavjud asarlardan magnit lentasiga yozib olingan musiqalardan va o‘zining ijrochilik repertuaridan keng foydalanishga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchilar turli janrlardagi musiqa asarlarini idrok etishi barobarida xilma-xil cholg‘u asboblari ularning sadolari tovush tembrlari bilanham tanishadilar.Ular asarni qayta-qayta eshitganlaridagina uni puxta o‘zlashtirib uzok muddat esda saqlashlari mumkin. Ayniqsa, yirik janrli va mumtoz asarlarni tinglaganda uning yangi –yangi badiiy qirralari ochilib tinglovchini badiiy tafakkur etishga asarga baxo berishga undaydi.

Shu sababli asar bir darsdagina emas balki keyingi darslarda ham takror tinglanib turilmog‘i maqsadga muvofikdir. Asar bilan tanishish jarayonida u haqda o‘qituvchining qisqa, ammo qiziqarli va obrazli kirish so‘zi, asar janri,tuzilishi, mazmuni, ifodali vositalari muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, asarning badiiy obrazlari haqidaqiziqarli suhbatlar ham tinglovchi-o‘quvchilarda juda katta ma’naviy ozuqa beradi. Badiiy tarbiya, shu jumladan musiqa tarbiyasining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Musiqa barcha san’atlar singari kishilarga voqelikdagi turli-tuman hodisalarni badiiy obrazlar vositasida bayon etadi.

Umumiyl o‘rta umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darsining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘z vataniga, xalqiga sadoqatli bo‘lish ruhida tarbiyalash ularga yuksak axloqiy estetik hissiyotni oshirish, yoshlarni san’atga bo‘lgan qobiliyatini va muxabbatini o‘sirishdan iborat. Ma’lumki, musiqa darsi-keng ma’nodagi san’at darsidir. Musiqiy tarbiya har bir boladagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga,har tomonlama barkamol bo‘lib o‘sishiga katta yordam beradi. Bunda “jamoaviy aytim” faoliyatining imkoniyatlarini alohida e’tirof etish o‘rinli.

Maktabda musiqa madaniyati fani o‘qituvchisining asosiy maqsadi bolalarni musiqa san’atiga qiziqtirish ularni musiqiy iste’dodini rivojlantirishdan iborat ekan, bunda milliy musiqa merosimiz va umumbashariy musiqa boyliklarining ahamiyati katta.

O‘quvchilarni faqatmusiqani amaliy jarayonida nazariy asos va maxsus ta’lim yo‘nalishiga asoslangan holda musiqa san’atiga o‘rgatish lozim. Mana shu sabablarga ko‘ra, eng tushunarli ommaviy va chuqur hissiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan jamoaviy qo‘shiqlar maktabda bolalar musiqa tarbiyasining omili hisoblanadi. O‘quvchilar faqatgina musiqa savodxonligini egallash Bilan chegaralanib qolmasdan, balki o‘qituvchi ijrosida musiqa asarlarini tinglaydilar uni idrok etadilar. O‘quvchilarga

musiqa san'ati asoslarinitushuntirish musiqaviy bilim saviyasini dunyoqarashini kengaytiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tisho'rinlik bolalarda musiqa ijrochiligiga nisbatan uni idrok qilish imkoniyatlari ancha kengdir. Buni albatta hisobga olib musiqiy faoliyatlarni tashkil etish kerak.

Asarlarini tinglash faoliyatini muntazam olib borish o'quvchilarning idrok qilishini takomillashtiradi, darsning mazmunli,qiziqarli hamda hayajonli o'tishini ta'minlaydi. Musiqa asarlarini chuqur egallash tushunish o'quvchilardan musiqiy savodxonlik talab etiladi. Maktabda o'tiladigan musiqa madaniyati darslari esa bolalarga dastlabki tayorgarlik malakalarini beradi,xolos. Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida ijro etiladigan asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmog'i ularning mazmuni va badiyligi yuksak darajada bo'lishi kerak. O'quvchilarda musiqa madaniyatini tarbiyalash faqatgina dars davomida emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalarda ham davom ettiriladi albatta. Tanlangan musiqa asarlari bolalarning yoshiga xususiyati, imkoniyati musiqiy extiyojiga mos bo'lishi muhimdir. Tajribada shu narsa kuzatiladiki ayrim musiqao'qituvchilarimiz asarlar tanlaganda yuqorida bayon etilgan talablarni nazardan chetga qoldirishadi. Natijada ular o'rgatadigan asarlar hamisha hamo'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini qondira olmaydi. Dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar zerikarli bo'libo'tadi. Shu bois tanlanadigan asarlar bolalarning yoshiga mo'ljallangan bo'lib ularning tushunchasi va ichki dunyosiga yaqin bo'lmog'ini ta'minlash lozim. O'quvchi-yoshlar tabiat fe'l atvori turlich bo'lgan bolalar quvnoq va qayg'uli musiqaniham tantanavor, ko'tarinki ruhamda hajviy musiqalarni hamqiziqib eshitadilar. Har o'quv yilida eshittiriladigan musiqaviy asarlar shakl va mazmun jihatidan murakkablashib boradi. O'quvchilar birinchi va ikkinchi sinflarda asosan bolalar uchun yozilgan musiqa asarlarini va o'zları o'qituvchi yordamida ijro etadilar.

Uchinchi sinfdan boshlab maktab o'quv dasturiga o'zbek xalq ashulalari qo'shiqlar bastakorlarning kichik hajmdagi mumtoz asarlari va keng tarqalgan ommaviy asarlar kiritiladi. Shu asarlardan tashqari o'rta maktablar musiqao'qituvchilarning o'zları o'quvchilarning yoshi va qobiliyatiga mos musiqiy asarni tanlash imkoniyatiga egadirlar. O'quvchilarning musiqaga havasini uyg'otish

uchun ularning tinglayotgan musiqa asarlarini e'tibor bilano 'zlashtirishi katta ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham pala-partish ijro etilgan asarlar bolalarda bekorchilik hissini uyg'otadi va aksincha, badiiy jihatdan mukammal ijro etilgan asarlar esa ularda chuqur badiiy taassurot qoldiradi. Ayniqsa sinfda o'qituvchi tomonidan yoki musiqaga havas qo'ygan ijrochi o'quvchi tomonidan ijro etiladigan asarlar hayajon bilan qabulqilinadi. Musiqa asarlarini eshitishdan oldin sinfda tinchlik bo'lishini ta'minlash lozim. Musiqani jimlik sharoitida madaniyatli tarzda tinglashga o'rganish juda yoshlikdan boshlanadi va ulg'ayganda yuksak madaniyatga ega shaxsni tarbiyalashga katta yordam beradi.

O'qituvchi musiqa asarini eshittirishidan oldin bolalar bilan shu mavzuda qisqacha suhbato'tkazadi. Bu suhbatda asarning mazmuni va xarakteri shu bilan birga asarning mualliflari haqida ma'lumotlar beriladi. "Takrorlash-bilimning onasi" - deydi donolarimiz. Asarni mukammal o'zlashtirish uchun vaqt-vaqt bilan takrorlab turish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Bolalar musiqa asarini qanchalik diqqat e'tibor bilan tinglasalar uni shunchalik, ko'p tushunadilar, biladilar, mazkur musiqaga bo'lgan muhabbatlari oshib boradi va asarni qiziqib eshitadigan bo'ladilar.

Darslarga tinglanishi lozim bo'lganmusiqa asarining ko'pchilagini o'quv yilining birinchi yarmiga mo'ljallah kerak.

Musiqa asarlari maxsus jihozlangan sinflarda o'tkazilsa samarali natijalar berishi mumkin. Maxsus jixozlangan xonada cholg'u asboblari (pianino, rubob, doira,akkardion, afg'on rubobi) yangi barcha milliy cholg'ular shuningdek, musiqa savodiga doir tablitsalar kompozitorlar rasmlari doskada chizilgan nota yo'li magnitafon plastinkalar va hokazolar bo'lishi kerak. Maxsus jihozlangan sinf bo'lman takdirda musiqamashg'ulotlarini oddiy sinflarda hamo'tkazilaveradi. Eng muhimi musiqa tinglash faoliyati uni idrok etish jarayoni qanday sharoitda amalga oshirilmasin, baribir o'quvchilar yosh xususiyatlari qiziqishlari va imkoniyatlari hisobga olingan holda amalgaoshirish talab etiladi.

Musiqani idrok etishda o'quvchi-yoshlarning psixologik pedagogik va fiziologik tayyorgarlik darjasini hammuhimo'rin egallar ekan, biz ishimizning navbatdagi qismida

mavzuimiz obyekti (V-XII) yoshdagi o'smiro'quvchilarning yosh xususiyatlari, imkoniyati va qiziqishlari masalalariga alohida to'xtalamiz.

O'smirlilik yoshida bolalikdan kattalikka ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirlikda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilish seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'qituvchi bilan o'quvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida ota-onalar va oiladagilar bilan o'zaro munosabatlarida keskin o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida muammolar paydo bo'ladi. Bular avvalo, ta'lim jarayonida ro'y beradi.

Musiqa san'ati va madaniyati darsi mazmunida o'quvchilarning musiqa savodxonligi tarkib toptirish muhim maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki musiqa savodi musiqa darsining ta'limiy vazifasini bajaradi. Musiqa savodi faoliyatining negizi va pedagogik maqsadi, ya'ni dastur bo'yicha berilgan mavzularni savodli tahlil qilish orqali amalga oshirishdan iborat. Musiqa savodi-musiqa san'ati va madaniyati haqidagi boshlang'ich tushunchalar tizimidan iborat.

Shuning uchun ham musiqa darsining mustaqil musiqiy faoliyati tarzida emas, balki butun dars davomida, ayniqsa jamoa bo'lib qo'shiq kuylash musiqa tinglash uchun asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganiladi. Musiqa savodi o'quvchilar ongining takomillashuvida katta yordam beradi. Musiqa savodining kaliti va pedagogik ahamiyati tanlangan qo'shiqlar va tinglashga doir asarni ongli ravishda idrok etib, ijo etish qoidalariga doir yangi tushunchalar hosil qiladi. Har bir darsda o'quvchilarning musiqa haqidagi bilimlari boyib boradi. O'quvchilarning musiqa taassurotlari va tajribalarining o'sishi musiqani hayot bilan bog'lashda va musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqidagi bilim doiralarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

## **II-BOB. MUSIQA O'QITISHNING MAZMUNI, MAQSADI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.**

### **§2.1. 5-7 sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni, musiqani idrok etish, uning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.**

5-sinfda tayanch-ta'lim bosqichi boshlanadi. 5-sinfda o'quvchilar psixologik tomondan ancha o'zgargan bo'ladi. Ularning hayotiy tajribalari boyigan, konkret fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Fikrlash bir muncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali idrokdan ko'ra so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatları rivojlana boshlandi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiyashib boradi. Ovoz diapazoni (Do1 - Mi 2) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi. 5-sinf o'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytishini ta'minlaydi, bolalar ovozining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Vokal-xor mashqlari sifatida xalq kuyi va qo'shiqlaridan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglari xususiyatlarini bolalar xissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofidir.

O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berishi va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirish kerak:

1. Sof unisonga erishishi
2. Musiqiy jumlanı boshidan oxirigacha to'la idrok etishi,
3. Notaga qarab qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab, nixoyatda oddiy mashqlardan, qo'shiq naqoratlaridan, kuylash uchun qulay bo'lgan ladlardan boshlash masadga muvofiqdir. Eng oddiy va murakkab mashqlarni ham, asosan solfedjio qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash lozim, chunki bu jarayonda notalarni nomlari va balandligi holatini ham anglab boriladi. Ikki ovozlikda kuylashni boshlashdan oldin, sinf taxtasida yoki plakatlarda ko'rsatib notalar nomini va tovushning balandlik holatini aniqlab, ovoz chiqarib bir necha marta takrorlab so'ng, kuylash zarur. Dastlab katta tersiya, sof kvarta, sof kvinta, katta seksta singari ohangdosh intervallar, mashqlar uchun asos bo'la oladi. Chunki, bu intervallar kuylash uchun qulay yoqimli va o'quvchilar xotirasida saqlanishi

oson. Intervallar faqat ikki ovozda kuylanmasdan, balki tinglash uchun ijro etib, ularda yuqori va pastki tovushni aniqlashni topshirish lozim. Bunday savollar o‘quvchilarni garmonik o‘quvini kuchaytiradi, intervallarni ongli ravishda o‘zlashtirish tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Ikki ovozlik qo‘shiqlarni kuylash uchun, kichik ohanglardan boshlab kattarok xajmdagi jo‘rsiz (akapella) asarlarga o‘tish, o‘quvchilarni bir-birini diqqat bilan eshitib, kuylash qobiliyatlarini o‘stiradi. Ikki ovozli qo‘shiqlarni tanlaganda, ikki ovozli elementi bor, kichik xajmdagi asarlar masadga muvofiqdir. Har qaysi ovozning ohangi aniq ravshan, mustaqil bo‘lishi kerak. Pastki ovoz kuyi shirali, xushohang, yaxshi esda qoladigan bo‘lishi ayniqsa muhimdir. Ovoz partiyalarining diapazoni, seksta septima oktavalar hajmidan oshmaydigan qo‘shiqlar aytishga ayniqsa qulaydir.

Qo‘shiqlar o‘rtacha tempda yozilgan bo‘lishi kuylash uchun foydali va osondir. Ikki ovozli qo‘shiqlarni ohanglari ijro jihatidan shakli yengil va oson bo‘lishi kerak. O‘zbek xalq qo‘shiqlarni o‘qituvchi ikki ovozlik qilib, qayta ishlab o‘rgatishi o‘quvchilarni talaffuzi intonatsiyasi va xotirasini rivojlantiradi. Ikki ovozlikni kuylashda, bir ovozni cho‘zib, ikkinchi ovoz harakatlanishi ham, bolalarni eshitish qobiliyatlarini o‘stiradi. Keyinchalik esa, ovozlarni parallel bir tomonga yo‘nalishi, ovozlarni qarama-qarshi yo‘nalishi va har xil murakkabrok holatida ham kuylash mumkin bo‘ladi. Musiqa darsida ikki ovozda kuylash uchun bolalar ovozini diskant va altga bo‘lish shart emas, balki taxminiy bo‘lishi ham mumkin. Chunki ikkinchi, uchinchi ovozni kuylaganda bolalarni musiqa o‘quvi ko‘proq o‘sadi. Shuning uchun ovozlarni galma-gal almashtirib kuylatish lozim. Buning uchun albalta dastlab, sof unisonga erishiladi. So‘ngra, ikki ovozli asarlarga o‘tiladi. Beshinchi sinf bolalarning ovozlari yangroq ovoz apparatlari shakllangan, ko‘nikma va malaka ega bo‘lganligi sababli ikki ovozli qo‘shiqlarni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim jarayonida 5-sinf o‘quvchilari – o‘zbek xalq cholg‘u orkestri, xor san’ati simfonik orkestr, vokal-simfonik asarlar, sahnaviy musiqa asarlari, raqs san’ati, musiqali drama va komediylar, opera san’ati, o‘zbek musiqasida opera janri haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, musiqa savodi darsining ko‘proq ta’limiy funksiyasini bajarmog‘i lozim. Shuning uchun musiqa savodiga doir beriladigan har bir yangi atama, tushuncha yoki nazariy element musiqa faoliyatining barcha turlari amaliyotida qo‘llanib, o‘quvchining musiqiy bilim doirasini

boyitib borishi lozim. Bu esa o‘quvchining musiqiy savodxonligini tarkib topishida asosiy rol o‘ynaydi.

### **Beshinchi sinfda musiqa darslarini yil mavzusi: “Kompozitorlik musiqa janri”**

**1-chorak:** “O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri. Xor san’ati”

**2-chorak:** “Simfonik orkestr. Musiqada vokal-simfonik janrlari”

**3-chorak:** “Sahnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san’ati. Musiqali drama va komediya”

**4-chorak:** “Opera san’ati. O‘zbek musiqasi opera janri”

Beshinchi sinfda darsning asosiy maqsadi, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflarda olgan bilimlarini va tayyorgarlik darajasini aniqlab, musiqa mashg‘ulotlariga, to‘garak ishlariga qiziqtirishdan iborat.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, har bir darsga kompleks yondashish bilangina yangi dastur talablariga muvofiq dars o‘tish mumkin bo‘ladi. Unda dasturda joriy etilgan har bir musiqa va mazmuni chorak mavzuidan kelib chiqishi va unga bo‘ysunishi bilangina erishish mumkin bo‘ladi. Demak, darsda amal qilinadigan musiqa faoliyatlaridan birortasi ham sun’iy tarzda darsning mustaqil elementi yoki qismi bo‘lib qolishi mumkin emas.

6-sinflarda o‘quvchilarda o‘sirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda aktiv o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bo‘yining o‘sishi, ovozining o‘zgara borishi fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi, qobiliyatları rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay, horg‘inlik holatlari ro‘y beradi. Bu davrda o‘qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo‘lish, do‘stona suhbatlashishi talab etiladi.

1.Darsning barcha faoliyatları vositasida doimiy ravishda o‘quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2.Vokal - xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo‘lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o‘rgatish

3.Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, mualliflari, tempi haqida fikr yuritishga o‘rgatish va estetik zavqlanish vositasida xotirasi, nutqi, dunyoqarashini o‘stirish.

4.Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish.

Quyidagi diapazondagi bir va ikki ovozli ashulalarni aytish:

Birinchi ovoz Do1 Mi 2 (Fa 2), ikkinchi ovoz Si kich (Lya kich) Do2(Re 2) musiqa o‘quvini o‘stirish, ovozni parvarish qilish va vokal-xor malakalarini hosil etishda maxsus vokal mashqlari, ya’ni uch tovushli, past bosich yoki yuqori bosichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi ismlarida ashula aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qo‘shiqlardan parchalar aytib, «Ovozni maromga solish» katta ahamiyatga egadir. Notaga qarab ashula aytish malakasi ham shu xilda qilish yo‘li bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi. O‘quvchilarni musiqadan savodli qilish xorda ashula aytish bilan mustahkam bog‘langan. Musiqadan savodli qilish vazifasi bolalarning musiqa o‘quvini o‘stirish asosida ularga ashulaning musiqiy ohangni anglash va tushunishni, ashula so‘zlarini to‘g‘ri aytishni o‘rgatishdir. Musiqa sohasida berilgan barcha nazariy ma’lumotlar notaga qarab ashula aytish va mashq qilish jarayonida mustahkamlanadi.

Qo‘shiq o‘rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarini sozlashi bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashadirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o‘z milliy san’ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha hosil qilishi lozim. Shu asosda o‘zbek musiqasining qisqa tarixi cholg‘u asboblari va o‘zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari mumtoz qo‘shiqlari zamonaviy qo‘shiqlarini taqqoslab ko‘rsatish mumkin.

Masalan: “Shoshmaqom”, tojik va o‘zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko‘p cholg‘u asboblari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlar va zamonaviy musiqa bilan tanishtirib taqqoslash lozim.

Musiqa savodidan o‘lchovlar, ladlar ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib musiqiy asarlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida mavzusi chorak mavzusi va dars mavzusi bir-biri bilan bog‘lanadi.

## **Oltinchi sinfda yil mavzusi: “Mumtoz musiqa”**

**1-chorak:** “Mumtoz musiqa haqida ma’lumot”

**2-chorak:** “Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari”

**3-chorak:** “Sharq xalqlari mumtoz musiqasi”

**4-chorak:** “Yevropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv”

**Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg‘ulotga tayyorlanish uchun topshiriqni bajarish bo‘yicha metodik tavsiyalar bilan tanishib chiqish, ma’ruzalar matnining tegishli bo‘limini tavsiya qilingan adabiyotlarni, tarqatma materialrini o‘rganib chiqish lozim. Talabalar bilan musiqiy metod usullarini qo‘llab olib boriladigan mashgulotlar metodik ishlanma ishlab chiqilgan, talab va farmatiga mos ravishda bajarilishi lozim. Amaliy mashgulotda talabalar bilan ish fragmenti namoyish qilish, muhokama va tahlil o‘tkazish. (Musiqi pedagogik o‘yin, kichik guruhlarda juft bo‘lib ishlash va boshqa shakllar). Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar musiqa madaniyati darslarini amalda olib borishni nazariyasini o‘rganish.

1. Musiqa idroki – darsning yetakchi faoliyati

2. Xor bo‘lib kuylashning musiqiy tarbiyatagi ahamiyati.

3. O‘quvchilarda ijodiy harakatlarni rivojlantirish

4.1-sinfda musiqa ta’limi mazmuni.

5.2-sinf musiqa ta’limi mazmuni.

6.3-sinflarda musiqa o‘qitish mazmuni va metodlari.

7.4-sinflarda musiqa o‘qitish mazmuni va metodlari.

8.5- sinfda musiqa o‘qitish mazmuni va metodikasi

9.6-sinflarda musiqa o‘qitish mazmuni va metodlari.

10.7-sinflarda musiqa o‘qitish mazmuni va metodlari.

11. Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning ahamiyati

12. Sinfdan tashqari ishlarning turlari

13. Sinfdan tashqari musiqiy mashg‘ulotlarning ahamiyati

14. O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari

**Yettinchi sinfda musiqa darslarini yil mavzusi: “Kompozitorlik musiqa janri”**

**1-chorak:** “Surxandaryo – Qashqadaryo, Samarqand – Buxoro vohalarining musiqiy uslublari”

**2-chorak:** “Farg‘ona – Toshkent va Xorazm vohalarining musiqiy uslublari”

**3-chorak:** “Shashmaqom”

**4-chorak:** “Xorazm maqomlari. Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari”

### **Laboratoriya mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

Maktab repertuarni labaratoriya mashg‘ulotga tayyorlanish uchun topshirig‘ni bajarish bo‘yicha metodik tavsiyalar bilan tanishib chiqish, tegishli bo‘limini tavsiya qilingan adabiyotlarni, tarqatma va musiqa materialrini o‘rganib chiqish lozim. Talabalar bilan musiqiy pedagogikasi va metodikasi metod, usullarini qo‘llab olib boriladigan mashg‘ulotlar metodik ishlanma, TSO audio, video, kompyuter va internetdan foydalanish lozim (talab va formatiga mos ravishda bajarilishi lozim). Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar mакtab musiqa repertuari asarlar o‘rganish, ijro va tahlil etish. Fan amaliy mashg‘ulotda musiqiy - pedagogik o‘yin, yakka holda (kichik guruhlarda) juft bo‘lib ishlash va boshqa shakllar).

Amaliy mashg‘ulotlar (yakka) mazmuni fan bo‘yicha beshta mavzuga ajratishni tavsiya etamiz. Har bir bo‘lim quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy maktab repertuarini o‘zlashtirish - qo‘shiqlar musiqa tinglash asarlari; musiqa o‘qituvchisining ko‘rgazmali - axborotli uslublari (KAU); qo‘sinq kuylash va ijro etish yoki ansambl bo‘lib ijro etish (duet.); ijodiy ijro; transpozitsiyalash; ohangga jo‘r bo‘lish; garmoniyalash; maktab musiqa asarlarini tahlili – annotatsiyasi yoki musiqiy pedagogik tahlil va b. Fanni amaliy mashg‘ulotlarida maktab repertuari, didaktik (vokal-xor mashqlari materiallari va b.) va qo‘sishcha musiqa materiallaridan foydalilanadi.

### **5-7 sinf maktab repertuari asarlarini o‘rganish.**

1. 5-7 sinf dasturidagi maktab repertuari asarlaridan qo‘sinq, musiqa tinglashni ko‘rsatib namoyish qilishga tayyorlash. Musiqiy demonstratsiya ilyustratsiya va sitata keltirish.

2. Musiqiy – tovushlar tahlili uslubini o‘rganish: Qo‘sinq misolida musiqa ijro etish, tinglash asarlarida, kontrast va boshqqa uslublarni qo‘llash.

3. Kombinatsiyali (uyg‘un) boshg‘arish usulini: vokal - cholg‘u – dirijyolik faoliyatida qo‘llash (ashulachilik faoliyatini boshg‘arish metodlari ikki va o‘ch bo‘g‘inli ko‘rsatuvlarni o‘zlashtirish).
4. 5-7 sinf dasturidan olingan asarldarda jo‘rlikning xilma-xil turlarini, shu jumladan, aralash turlarini o‘zlashtirib olishni davom ettirish: - qo‘sinq yoki romansni illyustratsiya bilan ijro etish. yuritish
5. Ko‘sinqlarni 2 tonga transpozitsiyalash. (katta 3) yuqoriga va pastga.
6. Tinglangshan asarlarni ijro eta olish, garmoniyalashtirish. Asarni notaga qarab ijro etish.
7. Dasturidagi 5-7 sinf. maktab repertuari asarlarni musiqiy – pedagogik tahlil qilish.

### **Мусика тинглаш методлари:**

#### **1. Ko‘rgazmali metodi:**

- o‘qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalari orqali bolalar cholg‘u asbobi, torli, ritmli harakatlar.

#### **2. Amaliy metod:**

- o‘quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularni hayotiy tajribasiga bog‘lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.

#### **3. Taqqoslash metodi:**

- bunda asarlarning janrlari ijrochilik hususiyatlari templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o‘stirishga yordam beradi.

Musiqa darsini 5ta faoliyati turlari (xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish) uzviy bog‘lab boriladi va mantiqiy bir butunlikka erishish maqsadga muvofiqdir.

#### **4. Og‘zaki metodlar:**

- O‘qituvchi tinlanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga bog‘lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualliflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli hikoya qilib beradi.

#### **Kuychang va kuychang bo‘lmagan (shovqinli) cholg‘u asboblar kiradi.**

1. Kuychang cholg‘u asboblarga metalafon va kselafon kiradi.
2. Kuychang bo‘lmagan cholg‘u asboblariga: doirachalar, oddiy cho‘p qoshiqlar, kichik shiqildoqlar, barabanchalar, uchburchak, markassa va rumbalar kiradi.

Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish turli metodlar amalga oshiriladi:

3. Avval bolalar kuyni tinglab, chapak chalish, ritmik jo‘r bo‘lish.
4. Musiqaga ritmik jo‘r bo‘lishni aniq bajarganlar, bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘ladigan.
5. Keyinchalik esa, passiv bolalar, to‘g‘ri ijro etishga intilish maqsadida, ular ham jo‘r bo‘ladilar.
6. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish har gal, har xil cholg‘u asboblarida bajariladi.
7. Sinfni 2 guruhga bo‘lib. 1-guruh chapak va cholg‘uda, 2-guruh esa ovoz usul berish (bum-ba, baka-baka-bum) bilan amalga oshirish mumkin.
8. Bolalar cholg‘u asboblarida ritmik, jo‘r bo‘lish grafik ko‘rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

### **§2.2. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning musiqiy his-tuyg‘ularini rivojlantirish.**

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning musiqiy his-tuyg‘ularini rivojlantirish va takomillashtirishda tinglash va kuylash uchun berilgan qo‘sishq va kuylarning mazmunini, xarakterini tahlil qilishni o‘quvchilarga dastlabki mashg‘ulotlardanoq o‘rgatib borish, keyinchalik ularda turli shakldagi musiqiy asarlar mazmunini ongli ravishda anglab, idrok etishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ishimizning ushbu faslida o‘quvchilarning musiqiy his-tuyg‘ularini rivojlantirishning o‘ziga xos usul va yo‘llarini ishlab chiishga harakat qildik. Bu borada o‘quv faoliyatları asosini tashkil etgan musiqa tinglash faoliyatni mazkur muammoni yoritishda asosiy manba sifatida tanladik. Mazkur muammo yuzasidan tadiqot-tajriba-sinovlarini Buxoro shahridagi 29-o‘rtalim maktabining 1-4sinflarda olib bordik.

Tadqiqotimiz davomida quyi sinflarda musiqa madaniyati darslarining musiqa tinglash va kuylash faoliyatlarida olib boriladigan ishlarning mazmuni sinflar kesimida o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash va kuylash faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil qilinishi, o‘quvchilarning musiqiy didini shakllantirishda u orqali musiqiy his-tuyg‘ularini rivojlanishida ijobiy samara beradi. Ayniqsa, musiqa tinglash hamda kuylanadigan qo‘shilarning umumiyl jihatdan ko‘rinadigan o‘ziga xos xususiyati kuy,

musiqa, qo'shiqning matni, ijrochilik mahorati uning insonga kompleks ta'sir qilishini ta'minlaydi. Tadqiqot ishimizning oldingi faslini yoritishda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, kuy va uning musiqiy ifodasi insonning hissiyotiga, uning sezgilarini va ongiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, qo'shiqning ta'siri murakkab va kuchlidir. Qo'shiq matni o'quvchi ongiga ta'sir etishning doimiy omili sifatida kuyga jo'r bo'ladi va kuy ham qo'shiq ham she'rning ritmikasiga moslanishi lozim. Bundan tashqari, musiqa va qo'shiqning sifatli ijro qilinishi ham g'oyat muhimdir.

Ijro etiladigan qo'shiq, tinglanadigan kuy, uning ohangdor va intonatsion ifodalaniishi, qo'shiqning she'riy asar sifatidagi g'oyaviy mazmuni va badiiy shakli nihoyat, musiqa hamda qo'shiqni yaxshi ijro etishning mujassam otishmasidir. Mana shu elementlarning qay biri o'quvchilar hissiyotini va ongiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi? – degan savolga javob berib bo'lmaydi. Binobarin, bizningcha mazkur elementlarning birlashuvi bilangina hissiy-ma'naviy ta'sir ko'rsatishga erishish mumkin.

Kuy va qo'shiqlarning tuzilish elementlari o'quvchi shaxsining turli soatlariga: ongi, irodasi, sezgisi, musiqiy idrokiga o'z holicha ta'sir ko'rsatsa ham, ijro etilayotgan qo'shiq va musiqaning jo'rliги yaxlit birgalikda idrok qilinadi. Ana shu ko'p yoqlama murakkab ta'sir ham yagona jarayon sifatida amalga oshadi.

Shuningdek, kuylanadigan ayrim qo'shiqlarning ta'siri qo'shiq jo'rligisiz ijro etiladigan musiqaning ta'siridan kuchliroq bo'ladi. Musiqa madaniyati darslarida tinglash va kuylash faoliyatları boshqa faoliyatlargacha qaraganda o'quvchilar orasida eng sevimli va eng qiziqlarlisidir. Biz yuqorida tinglash va kuylash uchun berilgan kuy-qo'shiqlar tuzilishining elementlarini ko'rsatgan edik. Ko'pchilik san'atning kuchi va o'quvchi yoshlarga ta'sirining xarakteri mazkur elementlarning har biri bilan bog'liq provard natijada ularning ketma-ketligi bilan belgilanadi va bu birlik yangrayotgan kuy va qo'shiqni idrok etayotgan kishiga yaxlit ta'sirini vujudga keltiradi. Bundan esa har bir elementni ko'rib chiqish va kuy-qo'shiq o'quvchilarga ta'sir etishning asosiy jihatlarini aniqlash zarurligini anglash mumkin.

Musiqiy asar ijrochiligi san'atining eng muhim elementi, uning emotsiyal o'zagi hisoblanadi. Kuyda o'ziga xos yo'sindagi ohangdor tovushlar shaklida qo'shiqning g'oyaviy, tarbiyaviy va emotsiyal mazmuni aks etadi. Qo'shiq kuyini qandaydir

muayyan, doimiy bir xil talablar doirasiga kiritib qo‘yish to‘g‘ri emas. Binobarin, qo‘shiqda ham kuyida ham uyg‘unlik uslub, ta’sirchanlik, ifodalash vositalarining har xil turlari bo‘lishi mumkin. Kuy va qo‘shiqlar faqat quvonchli, lirik, ko‘tarinki hissiyotlarni uyg‘otmaydi. U g‘amginlik, azablanish holatlarini ham vujudaga keltiradi. Boshqacha aytganda, qo‘shiq ham kuy ham faqat ijobiy kayfiyatlarni emas, balki salbiy kayfiyatlarni ham paydo qiladi. Bularning hammasi hayotning turli tomonlarini – quvonch, tashvish, orzu-umid, ayriliq va hokazolarni aks ettiradigan qo‘shiqning mazmuniga bog‘liq. Endi biz o‘quvchilarning musiqiy his-tuyg‘ularini rivojlantirishda asosiy omil hisoblangan musiqa qabul etishni tashkil etish muammolarini yoritishga harakat qilamiz.

Musiqa san’at sifatida ijtimoiy ong formasidir. U kishining his-tuyg‘ularini ifodalash bilan birga hayotiy voqe’lik va davr in’ikosidir. Musiqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagilar mavjud: musiqani eshitib zavqlanish, qo‘shiq ijro etish, musiqa savodiga doir xuysusiyatlarini anglab olish, raqsga tushish va musiqaga xos turli harakatlarni bajarish, chapak va cholu asboblari ijrosini, maqsadini idrok etib borishdan iborat: ijro etib musiqaga jo‘r bo‘lish uchun belgilangan musiqa darsini yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda eng avval o‘quvchilarni tinglay olish madaniyatiga o‘rgatish kerak. Musiqiy tarbiya vazifalarini bajarish uni amalga oshirish uchun o‘quvchilarni tinglashga o‘rgatish kerak. Aksariyat ko‘pgina odamlar jiddiy musiqani tinglashmaydi, chunki uni tushunmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko‘rilmasa bilim ham bo‘lmaydi. Tinglashga o‘rgatish qo‘shiq ijro eishdan murakkabdir. O‘quvchilarni musiqadagi yuksak badiyligini tanishtirish lozim. Bunday asarlar o‘quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didni tarbiyalaydi. Ko‘p sonli savodxon tinglovchilarni tayyorlash uchun musiqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o‘rgatish lozim. Musiqani sevish-bu musiqani doim tinglash demakdir. Musiqani tushunish bu – his etish, tahlil qilish, bilish demakdir.

Avvalambor o‘quvchilarni tinch va boshidan oxirigacha asarni tinglashga o‘rgatishimiz kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga e’tibor berish lozimligini aytib o‘tishi kerak. O‘qituvchi tinglash davomida rahbarlik

qilishi lozimdir. Eng muhimi tinglanayotgan asar o‘quvchilar yoshiga mos va esda qoladigan bo‘lishi lozimdir.

Musiqa tinglashda o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan vazifalar:

- musiqa san’atiga havas uyg‘otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish bolalarda musiqiy ehtiyojni kuchaytirish, o‘quvchilarda badiiy taassurotlarni to‘plab borish. (savol-javob, suhbatlar orqali).

Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.
2. Tinglashda oddiy musiqa terminlarini va atamalrini qo‘llab borish.
3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalarini ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish va kuylashga o‘rgatish.
4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar turlari cholg‘u asboblari bilan tanishtirish.

Shuningdek,

1. Musiqiy janrlarni bilish. (raqs, balet, opera va boshqalar).
2. Asarning tuzilishini bilish. (bandli, ikki qisqli yoki uch qisqli).
3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish.
4. Musiqiy nutqini elementlarini bilish. (xarakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari).
5. Musiqiy estetik ma’lumotlarni bilish. (tinglash madaniyati).

O‘qvuvchilar 1-sinfданоq musiqada mazmun borligini, u kishilarning hayotini aks ettirshini, bilishlari lozim. Shuningdek, musiqada shakl borligini bilishlari kerak (mazmun-bu ifoda etish yoki tasvirlash, shakl –bu kompozitorni asar mamunini ifoda etishga bog‘liq).

O‘quvchilarda musiqa didini tarbiyalashda o‘qituvchining mahorati muhim rol o‘ynaydi.

Musiqa tinglash 4 bosichda olib boriladi. Bular:

1. Asarni tushunish uchun bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o‘qituvchining kirish so‘zi.
2. O‘qituvchi ijrosida yoki audio yozuvida musiqiy asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo‘li bilan musiqiy tahlil etish va chorak mavzusini yoritish.

4. Asarni to‘liq qayta tinglash so‘ng asar haqida o‘quvchlarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o‘tkazishdan iborat.

2- sinfda “Yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va jo‘rsozlik” mavzusini yortishda tinglash madaniyatini tashkil etgan dars tuzilmasi. O‘quvchilarga yangi mvzularni tushuntirishdan avval o‘tilgan mavzular mustahkamlanadi va yangi mavzuga bog‘langan holda dars olib boriladi. Ushbu darsda “Bumerang texnologiyasi” qo‘llaniladi. Sinf o‘quvchilariga savol beriladi: “Musiqachilar kimlar?”. Sinf o‘quvchilarining javobidan so‘ng quyidagicha to‘ldiriladi: bizni juda ko‘p tovushlar qamrab olgan; uyda, ko‘chada, bog‘da, dalada (aslida haqiqiy narsa-hodisalarda mujassamlashgan). Ijodkor ularni asboblar yordamida o‘rgatadi. Haqiqiy musiqiy tovushlar musiqa asboblarida yashaydilar. Shuningdek, xonandalar tovushlarida, xorda. Sozandalar ijro etgandagina tovushlar jaranglaydilar. Endi shundan kelib chiqib, bu jarayon xarakter xususiyatiga qarab yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va jo‘rsozlikka bo‘linadi. Bir qo‘shiq bir ovozda ijro etilsa, “yakkanavoz”, ikki, uch, to‘rt kishi birga ijro etilsa, “Jo‘rnavoz” yoki shu ijroga sozandachilar ham qo‘shilsa jo‘rsoz deyiladi. Tarqatma materiallar yordamida dars mavzusi tushuntiriladi. O‘quvchilar 3 guruga bo‘linadilar.

### 1.Guruhchalarga materiallar tarqatiladi.

1-topshiriq. Ushbu rasmda berilgan yakkanavozni, jo‘rnavozni va jo‘rsozni toping. (1 rasm). Tanlangan javobni kartochkalarda tasvirlangan rasm yonidagi bosh katakchaga joylashtiring. (2 rasm).

To‘ldirilgan kartochkalr doskaga ilinib qo‘yiladi. (har bir guruh kartochkalari alohida skoch yordamida ilinadi). har bir gurudan vakil chiqib mavzuni tushuntirib beradi, har bir kartochkalardagi guruh javoblari tahlil qilinadi va xulosa keltiriladi. Tinglash madaniyati siz hayotda juda ko‘p musiqa tinglaysiz. Radio-televediniye orqali, teatr va konsertlarda, kino lavhalarida mакtabda va uyda musiqa yangraydi. Xalq o‘z hayotini qo‘shiqda, ohangda, raqsda ifoda etadi. Ko‘p musiqalarni kompozitorlar yaratadilar. Ular qo‘shilar, kuylar, opera, baletlar xor va orkestr uchun asarlardadir. Musiqa tinglashni bilish zarurdir. Buning uchun quyidagi qoidalarga rioya etish juda zarurdir.

### 1. Musiqani diqqat bilan tinchlikda tinglang.

2. To‘g‘ri va qulay o‘tiring.
3. Shovqin qilmang, gaplashmang, do‘srlaringizga musiqa tinglashga xalaqit bermang.
4. Musiqa to‘xtaganida qalbingizdagи musiqani tinglang va fikr yuriting.

Musiqa sizda qanday taassurot qoldirdi? Musiqa tinglaganda ko‘z oldingizga nima keldi? Kompozitor ushbu musiqa orali nima demoqchi? Musiqa qanday o‘zgardi? Kim uni ijro etdi? (yakkanvozmi?, jo‘rnavozlikmi?, jo‘rsozmi?, orkestrmi? va boshqalar).

5. Diqqat bilan o‘qituvchini savolini eshiting, o‘z taassurotlaringiz haqida gapirib bering, musiqa haqida fikr yuriting, asar haqidagi suhbatda qatnashing.

6. Uyda musiqa tinglang.

Musiqada ijodiy jarayonni tashkil etish muammolari o‘quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo‘lgan qiziqishini o‘stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to‘g‘ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta’limi jarayoni nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg‘or o‘qituvchilar tajribalarini o‘rganish, darsni turli bosichlarga bo‘lib o‘tish ijobiy natijalar beradi.

1.O‘quvchilarni darsga moslashtirish, xayrixohlik munosabatlarini hosil qilish, bajariladigan ishlar bilan tanishtirish, yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilash.

2. O‘quvchilarning bilim va malakalarini mustahkamlash. Bunda o‘quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlar doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondoshish ko‘nikmalarini o‘stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

3. Eshitish, idrok etish orqali bilimlar darajasini aniqlash. Shu jarayonda o‘quvchilarning idrok etish qobiliyatları tekshirib ko‘riladi.

O‘quvchilarni musiqa darsiga tezda jalb qilib, shu darsga moslashish alomatlarini shakllantirib borishga ham e’tiborni qaratmoq lozim. Buning uchun: Darsning boshlanish qismida quvnoq, sho‘x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etiladi. Darsda tinglangan bu musiqa o‘quvchilarda ko‘tarinkilik kayfiyati hosil qiladi. Eng muhim darsning sifatli, qiziqarli o‘tishiga yordam beradi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilim darajasini o‘rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, boshlanich sinf o‘quvchilarida ijodni boshlanishi, yorqin namoyon bo‘ladi, yosh o‘quvchilar judayam kashfiyotchi

bo‘ladilar: talaffuzni, taqlid qilishadi, obrazli ertak mazmunlarini yengil qabul etishadi, hikoyani qo‘sishqlarni, musiqiy asarlarni, tabiatan aktiv qabul qilishadi. Yosh o‘quvchilarda tabiatan aktivlik berilgan bo‘lib, ularda ijodiy qobiliyatlariga ishonch bo‘ladi. Mana shular kichik yoshdagi o‘quvchilarni ijodiy shakllanishini rivojlanishidir. Ijod o‘quvchilarni xotirasini aktivlashtiradi, fikrlashni kuzatuvchanlikni, masqadga intilishni rivojlantiradi.

Musiqiy ijodkorlik fikrlash bilan birga emotsiyal aktivlikni hamda tez bir qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantiradi. O‘quvchilarni bu ijodi bu mustaqil faoliyati bilan bog‘liqdir. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar ijodida asosan musiqiy amaliyotni o‘rganish va qiziqtirishda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy faoliyatga tayyorlash 3- yo‘nalishda kuzatiladi.

1. Hayotiy musiqiy tasassurotlar bilan boyitishda.

Masalan: asarga ritmik, kirish qismini yaratish ( o‘rganiladigan qo‘sishq asarlariga kirish qismi berilishi mumkin bu ijodiy harakat qobiliyatlarini rivojlanirishga qaratiladi).

2. Bundan oldin o‘qituvchi ko‘rsatadi, keyin hamkorlikda qo‘sishq tahlili va maqsadga yo‘naltirilgan ijro rejasi aytiladi. Bu yaxshi tanish qo‘sishqlar orqali tushuntiriladi. Bir xil va har xil ohang, har xil musiqiy obraz va musiqiy xarakterlarni ifodasiga bog‘liq bo‘lgan asarlar orali o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga ega. Masalan: ohang kuylarini variantlarini yaratish uchun, o‘quvchi talaffuzi, ritmik tajriba va ohanglarini mavjudligini tushunishi lozim (she’r matni, musiqaning ritmik tuzilishi).

3. O‘quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o‘ynaydi. Buni bajarish ko‘proq o‘qituvchiga bog‘liqdir. O‘qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o‘yin formasini qo‘llaydi. Topshiriqni bajarishda o‘yin qoidalari va mazmun aytib turiladi. O‘yin darsida emotsiyal hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo‘lib, o‘quvchilarda ijodiy yo‘nalishlarini shakllantiradi. O‘qituvchi o‘quvchining ijodiy rivojlanishiga katta ahamiyat berishi kerak. Musiqa tinglashda, qo‘sishq ijro etishda, bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lishda va shuningdek, musiqiy ritmik harakat va boshqalar.

3-sinfda musiqa dasrlari:

1) Musiqaning ifoda vositalari.

## 2) Musiqadagi dinamik belgilar.

Darsning borishi. a) o‘quvchilarda yangi mavzularni tushuntirishdan avval o‘tilgan mavzular mustahkamlanadi va darsda yangi mavzu oldingi mavzularga bog‘lab o‘tiladi. Ushbu darsda “Skarabey” texnologiyasi qo‘llaniladi. Musiqaning ifoda vositalari. Musiqaning mazmunini yoritishda turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositalariga sur’at, usul, tovush kabilar kiradi. Quyidagi 3 misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo‘lgan sur’atning kuyi kayfiyatiga qanday ta’sir etishini kuzating.

Quvnoq, o‘rtacha va og‘ir sur’atdagi asar parchalaridan o‘quvchilarga tinglash uchun berilib, o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Musiqaning dinamik belgilari: kompozitorlar biron–bir musiqa asarini yaratganlarida ularning ma’lum bir qismlarini kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini maxsus belgilar asarni yoqimli, jiloli eshitilishiga yordam beradi. Musiqada bu belgilar “dinamik belgilar” deb ataladi.

**f** – (forte) – kuchli

**mf** – (metso forte) – kuchliroq

**p** – (piano) – kuchsiz

**mp** – (metso piano) – kuchsizroq

So‘ngra tarqatma materiallar orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Sinf o‘quvchilari 3-guruhgaga bo‘linadilar. Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi va topshiriq tushuntiriladi. Guruhdagi o‘quvchilarning vazifasi: 1) sur’ati, tovush jo‘shqinligi, tovush jarangdorliklarini quyidagi rasmda ko‘rsatilgandek mustaqil joylashtirish. 2) o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan musiqiy asarlar (quvnoq, nafis, kuychan) tinglash uchun beriladi. (audioyozuvda yoki ijro etiladi). Guruhlar shu musiqa mazmuniga mos ertak so‘zlab berish.

### Sur’ati:

**Tez**

**O‘rtacha**

**Og‘ir**

### Tovush jo‘shqinligi:

**quvnoq**

**Yengil,  
yorqin,  
nafis**

**Kuychan**

## Tovush jarangdorligi:

**f**

**mp**

**p**

Har bir guruhning joylashtirilgan kartochkalari doskaga skoch yordamida ilinib qo‘yiladi. Har bir guruhdan vakil chiqib guruhlarning musiqaga mos ertak mazmunini tushuntirib tahlil qilinib xulosa keltiriladi. O‘quvchilarning musiqiy his-tuyg‘ularini rvojlantirish va takomillashtirishda qo‘sinq kuylash va qo‘sinq janrlarini tahlil qilish ham ijobjiy natijalar beradi. Agar kuylash malakasi hosil qilish ishini, asosan o‘rganiladigan qo‘sinqning badiiy obrazi ustida olib boriladigan ishga bo‘ysundirib olib borilsa, bu jarayon ancha muvaffaiyatli bo‘ladi. Qo‘sinqning badiiy obrazi ustidagi ish bilan uning vokal tomoni ustidagi ish o‘rtasida bir-biriga ikki yoqlama bog‘liqlik bo‘lishi kerak: ya’ni o‘qituvchi qo‘sinqning badiiy ijro etilishiga harakat qilishi bilan uning sof texnik tomoni ustida ham puxta ish olib boradi: o‘qituvchi qo‘sinqchilik malakasi bilan tarbiyalab badiiy obrazni mumkin qadar to‘liqroq aniqlash uchun sharoit yaratadi. Sinfda o‘rganiladigan har bir qo‘sinq ifodali, yuksak badiiy, o‘quvchilar tasavvuriga chuqur ta’sir qiladigan bo‘lishi kerak. Agar qo‘sinq o‘quvchilarni qiziqtirsa, ularning ongiga motsional ta’sir etsa, u vaqtida qo‘sinq kuylash usullarining sof texnikaviy tomoni ustida olib boriladigan ish ularga zerikarli tuyulmaydi. Ko‘pincha musiqa madaniyati darsi o‘qituvchilari kuylash mashqlarini vaqtini bekorga oladigan narsa deb, unga nazar-pisand qilmaydilar, qo‘sinq ustida olib boriladigan ishning o‘zi maktab o‘quvchilariga yetarli deb hisoblaydilar. Bunday qarashlar bilan ishlab bo‘lmaydi, chunki bu metod qo‘llanganda kuylash malakalari o‘quvchilar tomonidan ancha kech o‘zlashtiriladi. Musiqa o‘qituvchisi maxsus mashqlarni tanlashda ancha ijodkor bo‘lsa, u o‘z maqsadiga shuncha tezroq erishadi.

Kuylash malakalari har bir musiqa darsidan ma’lum o‘rin olishi kerak. Bu mashqlar juda xilma-xil bo‘lishi mumkin, lekin hamma vaqt o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Kuylash malakalari ustida olib boriladigan ish metodlari o‘quvchilarning yoshiga qarab, o‘zgarib boradi. Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchining mashqlarini o‘z ovozi bilan ko‘rsatishi asosiy metod hisoblanadi. 5-6

sinflardan boshlab esa, bolalar bu yoshda atrof – muhitga ongli munosabatda bo‘lganliklari sababli, bu metod ancha o‘zgaradi. Ovoz bilan ko‘rsatish metodi bilan birga o‘quvchilarning u yoki bu vokal – xor malakasini ongli idrok ettirish metodidan ham foydalanish juda muhim.

O‘quvchilar umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida qo‘sinq kuylashni o‘rganish jarayonida qay xildagi kuylash malakalarini hosil qilishlari kerak? Qo‘sinq kuylash uchun qomatni rostlash, qo‘sinq kuylashga xos nafas olish, tovush hosil qilish, diksiya, soz, ansambl, bularning kuylash malakalaridir. Qo‘sinq kuylashdagi holat 1-musiqa darsidan boshlab, o‘quvchilarga kuylash malakalarining asoslari beriladi. Bu yerda eng asosiy musiqa, qo‘sinq kuylash uchun qomadni rostlashni vujudga keltirishdir. Qo‘sinq kuylash uchun qomadni to‘g‘ri rostlash deganda, nimani tushunasiz? Bunda qo‘sinq kuylayotganda gavda, bosh, oyoq va qo‘lning qay holatda turishi lozimligini tushunamiz. Qo‘sinq kuylash uchun qomadni to‘g‘ri rostlash, qo‘sinq kuylashda nafasni bir tekis olish, qo‘sinqni tabiiy erkin ravishda aytishni ta’minlaydi. Demak, o‘qituvchi bunday malakani hosil qilishi uchun juda ko‘p e’tibor berishi kerak.

Qo‘sinq kuylash uchun omadni to‘g‘ri rostlash nimalardan iborat? Ma’lumki, qo‘sinqni tikka turgan holatda ijro etish eng qulay va ma’qul usul hisoblanadi. Bunda gavdani erkin, yelkani kerib, uni sal orqaga tashlash kerak. Ko‘krak qafasni to‘g‘ri tutish lozim. O‘quvchilar tik turib qo‘sinq kuylayotganlarida gavdani bukmasdan va yelkalarni bukchaytirmsadan, qo‘llarini erkin, bemalol pastga tushirgan, oyoqlarini sal yelka kengligidan kichikro ochgan holda unga tayanib turishlariga e’tibor berish kerak. Boshini biroz, o‘ziga qulay bo‘lgan tabiiy holda ko‘tarib turish lozim. Bu narsalarni doim kuzatib, eslariga solib turish, qo‘sinq aytayotganda boshini qanday tutish lozimligini ko‘rsatib turish zarur. Chunki, ba’zi bolalar boshlarini juda tik, ko‘taradilar yoki pastga engashtirib turadilar.

Musiqa darslarida ko‘pincha boshqacha holatlar ham qo‘llaniladi. O‘tirib qo‘sinq kuylash holatida gavda va boshning holati tikka turib qo‘sinq aytish uchun qomatni rostlash holatiga o‘xshaydi. Taxminan stulning chekkarog‘iga, oyoqlarini tikka turib qo‘sinq kuylagandagidek o‘xhash bir-biridan sal ajratib tayanchini sezdirganroq qilib, o‘tirishi kerak. Qo‘llarni tizzaga qo‘yish, kuylash ko‘nikmasini tezda hosil qilib bo‘lmaydi. Bolalar buni osongina tushunib bilib oladilar. U lekin, tezda eslaridan ham

chiqadi. Shuning uchun o‘quvchilar qo‘shiq kuylayotganida qanday o‘tirganliklarini doim kuzatishi lozim. Tajribali o‘qituvchi biron bir qo‘shiq o‘rganilayotganida yoki mashq qilinayotganida va vaqt-vaqt bilan sinfga ba’zan esa alohida o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidasini eslatib turadi. Agar bular bilan ketam-ket shug‘ullanilmassa, bolalar qo‘shiqni to‘g‘ri holatda ijro etishiga erishib bo‘lmaydi.

Doimo o‘quvchilarni qanday o‘tirganliklarini kuzatib borish bilan o‘qituvchi darsga uyushqoqlik ruhini kirgizadi. O‘quvchilar o‘zlarini yaxshi tutadigan diqqatini bir joyga to‘playdigan bo‘ladilar. Intizomli bo‘lib boradilar. Bu ish ayniqsa, boshlanich sinflarda ko‘p sabr-matonat talab etadi. Hamma vaqt qo‘shiq kuylashga kirishdan oldin o‘qituvchi bolalarga to‘g‘ri o‘tirish kerakligini eslatishi zarur. O‘rganilgan qo‘shiqlarning eng yaxshisi tikka turib ijro etish ma’qul. Bunda ovoz to‘liq jaranglab chiqadi. O‘qituvchi bolalarni qo‘shiq kuylash uchun o‘rinlaridan turayotganida shovqinsiz, bejirimlilik bilan turishga o‘rgatishi lozim.

Agar musiqa darsi maxsus jihozlangan binoda o‘tkazilmasdan, oldin sinfda o‘tkazilsa, o‘quvchilar partadan shoshilmay osoyishtalik bilan chiqib o‘z o‘rindiqlari yonida tikka turishlari kerak.

Qo‘shiq o‘rganib bo‘lingach, uni ijro etayotganda o‘quvchilarning yuzlari ola-zarak bo‘lmasdan, ifodali, ma’noli bo‘lishi zarur. Yuzdagagi mimika ijro etilayotgan qo‘shiqning mazmuni va xarakterini aks ettirishi kerak. Nafas olish, qo‘shiq kuylashdagi to‘g‘ri holat qo‘shiq aytishdagi nafasni to‘g‘ri olish malakasini egallashning asosidir. Qo‘shiq san’ati-bu nafas olish san’atidir deb qo‘shiqchilar bejiz aytmaganlar. Bolalarning deyarli hammasi qo‘shiq kuylayotganda nafas olishdan foydalanishni bilmaydilar. Bolalar nafas olganlarida o‘pkaning faqat yuqorigi qismigina havo bilan to‘ldiradilar, bu esa yelkalarning sirtdan entikib-entikib ko‘tarilishidan bilinib turadi.

Bolalar qo‘shiq kuylashi uchun nafas olishning eng qulay foydali tipidan ya’ni chuqur nafas olish usulidan foydalanishga o‘rgatish kerak, bu holda o‘pkalar havo bilan rosa to‘ldiriladi. Bolalar nafas olishida yelkalarni qimirlatmay, osoyishta turishini doimo eslatib turish kerak. Agar o‘quvchilardan birortasining nafas olayotganda yelkalari ko‘tarilsa, o‘qituvchi o‘sha bolaning to‘g‘ri nafas olishiga yordamlashmog‘i lozim. Buning uchun o‘qituvchi qo‘llarini qo‘shiq kuylayotgan bolaning ikki yelkasiga

qo‘yib turib, nafas olayotganida yelkalarining qimirlashiga yo‘l qo‘ymaydi. O‘qituvchi bolalarga nafas olish vaqtida faqat yelkalargagina e’tibor bermasdan qanday qilib yaxshi nafas olish lozimligini ham tushuntirishi zarur. Bolalar nafas olayotganlarida kaftlarini pastki qovurg‘alarga qo‘ya turib, bu holni o‘zлari tekshirishlari mumkin. Agar nafas to‘g‘ri olinsa, pastki qovurg‘a ko‘tariladi. Kishi yotib nafas olganda ham shunday bo‘lishini bolalarga tushuntirishi kerak.

Bolalarni to‘g‘ri nafas olishiga o‘rgatish faqat qo‘sinq kuylash uchungina zarur bo‘lib qolmay, balki bolalarning sog‘ligi uchun ham zarurdir. Nafas olishning xarakteri va “sur’ati” ijro etiladigan asarga bog‘liqdir. Agar qo‘sinqni cho‘zib, sekin-asta aytish kerak bo‘lsa, chuqur va og‘ir nafas olinadi. Agar qo‘sinq sho‘xchanroq bo‘lsa, nafas ham tez va yengil olinadi. Masalan, J.Najmuddinovning “pianino”, F. Nazarovning “paxtaoy” qo‘sinqlarini ijro etish uchun har bir jumlaning boshlanishida bolalarning sekin-asta nafas olishlariga erishish mumkin.

Endi biz kuylash va musiqa tinglash orqali o‘quvchilarining musiqiy hiss tuyg‘ularini rivojlantirish hamda ularning ijrochilik, mahoratini oshirishdan sinf-konserti faoliyatini tashkil etish jarayoniga to‘xtalamiz. Musiqa tinglash-o‘quvchilarining nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirishda hamda ularning musiqiy did va tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tinglash uchun turli shakkda bo‘lgan musiqa namunalarini tanlash mumkin. Masalan, asar ansambl dasturidan o‘rin olgan bo‘lishi yoki umuman dasturga aloqador bo‘lmasisligi mumkin. Bundan ko‘zlangan maqsad hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Jumladan, dasturga daxldor asar uni amaliy o‘rganish nuqtai nazaridan ko‘proq ahamiyatli bo‘lsa, o‘rganish uchun murakkab bo‘lgan musiqiy namuna esa yuqori ijroviy mahorat va badiiy mukammallik jiatlarini idrok etish ahamiyatlidir.

Musiqiy namunalarda rahbar ijrosida yoki ovoz taratish vositalari orqali tinglanadi. Albatta, bu jarayonda o‘quvchilarining yoshi inobatga olinishi shart. Jumladan, 1-2sinf o‘quvchilariga iloji boricha xalq orasida mashhur bo‘lgan kuy-qo‘shilarni eshittirish tavsiya etiladi. Masalan, bu asarlarni “alla”, “Diliroj”, “dutor bayoti”, “omon yor”, “lazgi”, “qashqarcha”, “norim-norim” kabi namunalar tashkil etishi mumkin. 3-4 sinf o‘quvchilariga esa nisbatan rivojlangan va murakkab tuzilishi namunalarini tinglay boshlaydilar. Chunki, bu yoshdagi o‘quvchilar musiqa tinglash va

uni idrok etishi borasida ma'lum malakalariga ega bo'lishgan bo'ladi. Shuni ham aytish lozimki, musiqa tinglash jarayonini o'lkada mashhur bo'lgan xalq san'atkori yoki folklor ansambl bilan ijodiy uchrashuv o'tkazish amaliyoti bilan bog'liq olib borishi yanada yaxshi natijalar beradi. Chunki, o'quvchilar "jonli ijro"dan chuqur taassurot oladilar.

O'quvchilarga quyidagi asarlarni tinglash tavsiya etiladi. "chaman ichra", "subhidam", "munojot", "Cho'li iroq", "Yovvoyi ushshoq", "Yovvoyi chorgoh", "Toshkent irog'i", "Soiqi nomai savti kalon", "o'g'lima o'xshaydi ovozing sening", "Navro'zi ajam", "Miskin", "Nasrullo" va boshqalar. Har chorak yakunida tashkil etiladigan sinf – konsert faoliyati asarlarni tahlil etishning amaliy natijasidir. Ijrochilarning zarur malaka mahoratining shakllanishi, o'zgartirilgan asarlar soni yetarli bo'lgach, shu xulosa asosda konsert dasturi tuziladi. Ushbu dastur rang-barang va turli janrlarga taalluqli asarlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, ilk bor konsert berish jiddiy sinov sifatida muhimdir.

Konsert ijrochiligi uchun o'quvchilarning sahnaga chiqishi, unda o'zini qanday tutishi lozimligi va boshqa zaruriy xarakatlar, rejissiyorlik tartibda mashq qilinadi. Har bir asar ijrosi badiiy yetilgan, uning konsert dasturi tartibidagi o'rni aniq belgilanadi va shu yo'l bilan konsert dasturi ham puxta ishlab chiqiladi. Sinf-konsertiga maktab ma'muriyatini va ota-onalarni ham taklif etish mumkin. Konsert uchun sinf xonasi oldindan tayyorlab qo'yiladi. Ijrochilar musiqa o'qituvchisi va sinf rahbari tomonidan rag'batlantiriladi. Chorak yakunida o'tkaziladigan sinf-konsertlari turli bayram va mashhur sanalarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Biz ishimizning ushbu faslida musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishning o'ziga xos usul vositalarini yoritishga harakat qildik. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa tinglash va kuylash faoliyatları bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan dars jarayonida tashkil etilgan sinf-konsertlarining ham o'rni alohidaligi o'rganib chiqildi. Xullas, musiqa faoliyatlarining barchasi o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilsagina o'quvchilarda musiqiy his-tuyg'ularni rivojlanish va takomillashib borishi ijobiy samara berishi tadqiqotimiz natijasida o'z tasdig'ini topdi.

## **Ta’lim metodlari to’g’risida tushunchalar va ularning tasnifi**

Ta’lim metodi bu o’qituvchi va o’quvchining tartibga solingan o’zaro aloqadagi usuli, o’qitish jarayonida ta’lim va rivojlanish masalalarini xal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Metod (yunoncha atama-aynan nimagadir yo’l ) maqsadga erishish yo’lini bildiradi. Muayyan ma’noda tartibga solingan faoliyat. O’qitish metodlari o’quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyatning tegishli metodlarisiz ta’limning maqsad va vazifalarini o’quv materialining muayyan mazmunini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirishga erishib bo’lmaydi. Usullar axborotni o’zatish va qabul qilish xarakter iga qarab so’z orqali ifodalash, ko’rgazmali va amaliyga bo’linadi. Ta’lim mazmunini o’zlashtirishda o’quvchilarning bilim faoliyatini xarakteriga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish - ilyustrativ (informatsion retseptiv) reproduktiv, muammoli bayon, xususiy kidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot va tadqiqot usullari qo’llanishi mumkm.

Metodlar asosiy guruqlarining har biri o’z navbatida guruhchalar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo’linadi. O’quv- bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o’zi o’zlashtirish, qabul qilish, anglash, o’quv informatsiyalarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko’nikmalarni amaliyotda qo’llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so’z orqali qabul qilish melodlari (og’zaki metodlar: hikoya, ma’ruza, suhbat va b.), o’quv informatsiyasini ko’rgazmali o’zatish va ko’rish orqali qabul qilish metodlari (ko’rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va b.) o’quv informatsiyasini berish va uni taktil, kinestezik qabul qilish (amaliy metodlari: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va b.) kiradi. Ta’limning og’zaki metodlariga hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu metodlarning qo’llanishida o’qituvchi so’z vositasida o’quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o’quvchilar esa tinglash, eslab qolish va anglash orqali uni faol qabul qiladilar va o’zlashtiradilar.

**Hikoya.** Ushbu metodda, o’quvchilarga savol bilan bo’linmasdan, o’quv materiali mazmunini og’zaki bayon qilish ko’zda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi bo’lishi mumkin - hikoya - muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa. Birinchisining maqsadi – o’quvchilarni boshqa metodlar bilan, masalan, suhbat orqali yangi o’quv materialini qabul qilishga tayyorlashdir. Hikoyaning bu turi nisbatan bayonning qisqaligj,

yorqinligi, qiziqlarliligi va emotSIONalligi bilan xarakterlanib yangi mavzuga qiziqish, uni faol o'zlashtirishga extiyoj uyg'otadi. Mana shunday hikoya vaqtida darsda o'quvchi faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi. Hikoya - bayon davrida o'qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja, asosiy, muhimlarini ajratib, ilyustratsiya va ishontirarli misollarni izchil bayon qilishni amalga oshiradi. Hikoya - xulosa odatda mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituychi unda asosiy fikrni yakuniaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi. O'quv lektsiyasi (ma'ruza) ta'limning so'z bilan ifodalash metodlaridan biri sifatida o'quv ma'ruzasi o'quv materialini og'zaki bayon qilishini ko'zda tutib, hikoyadan o'zining xajmining kattaligi, mantiqiy ko'rilib, obraz isbotlash va umumlashtirishining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi, hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi. Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarining fikrlashini faollashtirish ususllari, argumentlashtirish, isbotlash-tisniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va x.k. usullardan foydalaniladi. Ma'ruza asosan o'rta maktablarning yuqori sinflarida, shuningdek, texnikum va oliy o'quv yurtlarida o'qiladi. Ma'ruza rejasini aniq o'yash va ma'lum qilish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmos'hil kerak. **Suxbat**. Suxbat metodi atroflicna uylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi. Suxbat metodining qo'llanishida savollarning kuya olish usullari (asosiy, qo'shimcha, yo'llovchi va x.k.) o'quvchining javob va muloxazalarini muxokama, qilish usullari, suhbatdan xulosalarini shakllantirish usullari, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

### Musiqa o'qitish metodlari

**Ta'limninig ko'rgazmali** metodlarini shartli ravishda ikki katla guruhga bo'lish mumkin: ilyustratsiya va namoyish qilish metodlari. illyustrasiya metodi, o'quvchilarga ilyustratsiya qo'llanmalar - plakat, harita, doskadagi rasm, kartina, olimlarning portretlari va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish kilsh metodi odatda asboblar, tajribalar, texnik ko'rilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish

metodiga shuningdek, kinofilm va diafilmlar ko'rsalishni ham kiritishadi. Ko'rgazmali vositalarning illyustrativ va namoyish qilish bo'linmalari o'qitish amaliyotida tarixiy shakllangan.

**Ta'limning amaliy** metodlari o'quv faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini kamrab oladi: amaliy melodlaridan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifani qo'yish, uni bajarilishni rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, jadal ragbatlantirish, tartibga solish va nazorat, amaliy ish natijasini tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga tulik erishish uchun ta'limga tuzatish kiritib borish.

**Ta'limning muammoli - qidiruv** metodlari amalda ta'limning so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini mukammal bayon qilish metodlari, muammoli va evrestik suhbatlar, muammoli kidirish tipidagi ko'rgazmali metodlarni qo'llash, muammoli qidiruv amaliy ishlarni o'tkazish yoki xatto tadqiqot tipidagi ishlar to'g'risida gapirish mumkin. O'quv materialini muammoli va muammoli tuzilgan ma'ruza metodlari orqali bayon qilish o'qituvchining bayon davomida muloxaza yuritish, isbotlashi, umumlashtirishini, faktlarni tahlil qilish va tinglovchi fikrini o'z ortidan ergashtirishi, uni faolrok va ijodiyrok qilishni ko'zda tutadi. Muammoli ta'lim metodlaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbatি hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro bog'langan savollarni qo'yadi. O'quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarini aytadilar. Aytganlarining to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Bu bilan birga yangi bilimni o'zlashtirishda mustaqil ravishda o'zlarining oldinga siljishini amalga oshiradilar. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvcnilar faoliyatining yigindisidan iborat. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, doimo dinamik tarzda o'zgarib boradi. Ta'lim davomida ta'lim olayotganlarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Musiqa darsida o'qituvchi o'quvchilarini musiqani idrok etish jarayonida, bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi uslublarni qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida vositachi hamdir. Chunki, aynan bir metod bilan o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchilar o'rganadi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining

bilim, mahorat va malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuntiriladi. Bu metodlar, bir necha turga bo'linadi:

**1.**Musiqqa o'qitish og'zaki metodlari: a) hikoya, b) suhbat, v)tushuntirish

**2.**Ko'rgazmai o'qitish metodlari. Bunda nota yozuvlari, plakatlar, dirijyorlik harakatlari, raqs, musiqani jonli va aniq ijro etilishi, ritmik sur'ati ko'rsatiladi.

**3.**Amaliy metodlar: Amaliy metodlar vositasida vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlili, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalish harakatlarini bajarishlar, qo'shiq kuylash jarayonida ifoda etiladi.

**4.**O'yin metodi: o'yin metodi asosan boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. O'yin metodi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini, nutqini, xotirasini, qiziqishini psixologik-flziologik xususiyatlarini rivojlantiradi.

**5.**Taqqoslash metodi: Bu metod vokal-xor ishlarida, musiqqa asarlarining tahlil va janrlarni belgilash (qo'shiq, raqs, marsh) musiqqa tinglash jarayonida qo'llaniladi.

**6.**Musiqiy o'quvi bush bo'lgan o'quvchilar bilan ishslash metodi: musiqiy o'quv bush bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differentsional guruhlarga bo'lib va darsdan tashqari vaqt ajratib, yakka tarzda ish olib boriladi. Darsdan tashqari jarayonida alohida qo'shiqlarni o'rganib, topshiriqlar beriladi.

Davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan talab maktablarda o'qitish jarayonini jahondagi rivojlangan buyuk davlatlardagidek har tomonlama jaxon talablariga javob beradigan tarzda darslarni tashkil qilish. Har bir darsda ta'limning optimal usullarini qo'llashga erishishdir. Musiqqa tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini bir butun sistemasi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, o'qitish jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham ma'lum bir funktsiyani bajaradi. Optimal (xususiy) metodlar o'qitish faoliyati va maqsadga qarab 4 ga bo'linadi:

1. Darsning musiqaviy umumlashtiruvchi metodi

2. Utilajak darslarga oldindan "yugurib", bog'lanib o'tish va ilgari utilganlarga qaytish metodi.

3. Dars mazmunini emotSIONAL dramaturgiysi metodi

4. Darsning pedagogik jihatdan ko'zatilishi va bilimlarni baholash metodi. O'qituvchidan o'qitishning optimal usullarini tanlash va o'quvchilar aktivligini oshirish uchun quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

1. Musiqa o'qitishning umumiy maqsadi hamda har bir darsning konkret maqsad va vazifalarini belgilash. Yosh avlodning milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatni inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmuni xalqimizning milliy ruxiyati oliy insoniy fazilatlari, badiiy ma'naviyati istiqlol va mustaqillik uchun kurashi hamda orzu-umidlari inkor etiladi. Bu buyuk manaviyatimiz yosh avlodning madaniyati va milliy tafakkurini shakllantirishda benazir vositadir. O'qituvchining darsi ma'lum maqsadlarga qaratiladi. Darsning to'limiy va tarbiyaviy maqsadini to'gri belgilash o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishning muhim sharti sanaladi. Chunki, darsning maqsadidan o'quvchilar oldiga qo'yiladigan maqsad ham kelib chiqadi.

2. Ta'lim jarayonida o'quvchilar aktivligini oshirishning yaria bir muhim omili - dars struklurasini to'g'ri belgilashdir. Ko'p xollarda ba'zi o'qituvchilar darsning strukturasini to'g'ri belgilay olmaganliklari sababli qiyinchiliklarga duch kelayotirlar.

3. O'quv materialining xarakteri, o'quvchilarning yosh xususiyati va sinfning real o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'limning eng ma'qul metodi tanlanadi. Bunda o'quvcnildan mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko'rsatish talab qilinadi.

4. O'qitish ishida ta'limning individual, gruppa va kollektiv formalarini qushib olib boorish, o'quvchilarga differential munosabatda bo'lishning ahamiyati katta. Dars jarayonida biz ta'lmning ana shu formalaridan unumli foydalananamiz. Chunki, ta'limning ana shu formalarini birga qushib olib borish orqali o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishga erishiladi. Individual ish formasida har bir o'quvchida mustaqil fikrlash, qo'yilgan problemani mustaqil xal qilish talab etiladi.

5. Muammoli o'qitishni tashkil qilish. – O'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoni ijodiy isbot qilishga harakat kilsinlar. 6. Dasturlashtirilgan o'qitish, ya'ni o'quvchilar qobiliyatiga qarab har bir o'quvchi uchun ma'lum dastur - vazifa tuzish , bularni asta - sekinlik bilan chuqurlashtirib, mustahkamlab borish. Nazariy masalalarni EXM orqali amalga oshirish. Shunday qilib, musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarning

bilish faoliyatini aktivlashtirish, darsning maqsadi va strukturasini to'g'ri belgilash, diqqat va e'tiborni o'quv materiallarining asosiy qirralariga qaratish, tema xarakteriga muvofiq keladigan ta'lif metodi va metodik usullarni tanlash, o'qitishning individual, gruppali va kollektiv formalarini birga qushib olib borish, differential ta'lif imkoniyatlardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Darsda ta'limning ana shu vositalariga amal qilish orqali o'quvchilarning musiqada yuqori o'zlashtirishga erishib kelinmokda.

Agar ta'lif jarayoni o'quvchida faol harakat, bilim va ko'nigmalar orttirish ishtiyoqini uyg'otsagina samarali kechadi va sifatli natijalar beradi. O'quv faoliyati bunday tashkil qilish uchun uning barcha usullari – og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, reproduktiv, qidiruv, induktiv hamda didiktiv, shuningdek, mustaqil ish usullaridan foydalilanadi. Ta'lif jarayonida rag'batlantirishning asoslash vazifasini utaydigan bu usulni shartli ravishda ikki guruhga, o'quvchilarning bilish ishtiyoqini uyg'otuvchi hamda ta'limda burch va ma'suliyat tuyg'usini shakllantiruvchi usullardan iborat guruhga ajratish mumkin. Bu jarayonda o'quv faoliyati, uning mazmuni, shaklli va amalga oshirish usullariga munosabatda ijobiy usullariga munosabatda ijobiy xissiyotning yuzaga kelishini ta'minlash muhimdir. Xissiy holat, doimo ruxiy to'lqin iztirobi bilan hozirjavoblik, hamdardlik, quvonch, gazab, xayratlanish o'zaro bog'liqdir.

Shuning uchun ham diqqat, eslab qolish, anglash jarayonlariga bunday holatda o'quvchining chuqur ichki kechinmalari qushiladiki, bij jarayonni qizgin kechadigan qiladi va maqsadga erishish ma'nosida ancha samarali bo'ladi. Ta'limga xissiy rag'batlantirish usullaridan biri, darsda qiziqarli vaziyatni yaratishdir. Bunda gap o'quv jarayoniga qiziqarli misollarni, tajribalarni, faktlarni kiritish ustida boradi. O'quv faoliyatiga qiziqishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun ta'lif printsiplari qator talabalarga javob berish lozim. Bunda ta'lif mazmunining rag'batlantiruvchi ta'sirini oshiradigan ayrim maxsus usullari ham mayjuddir. Ularga birinchi navbatda yangilik va dolzarblik vaziyatlarini yaratuvchilik mazmunini, fan hamda texnikaning eng muhim kashfiyotlarini zamonaviy madaniyat, san'at, adabiyot yutuqlariga, ijtimoiy-siyosiy va xalqaro hayot xodisalariga yaqinlashtirishni kiritish mumkin. Ana shu maqsadda mamlakat jamoatchiligidagi alohida qiziqish uyg'otayotgan, vaqtli matbuotda e'lon

qilinayotgan, televideniye va radio orqali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi. Ana shundagina o'quvchilar darsda o'rganilayotgan masalalarining muhimligini yorqin va chuqr xis qiladilar va shunga asosan unga katta qiziqish bilan yondashadilar.

O'quvchilarni takdirlash ular xulqi va o'quv faoliyatidagi ijobiy jihatlarni qo'llab-quvvatlash doirasi nihoyatda xilma-xildir. O'quv jarayonida - bu o'qituvchining maqtovi, yuqori baho qo'yish va boshqalardir. Jazolashning tanbex va boshqa turlari ta'lim asoslarini shakllantirishda istisno etiladi, odatda bu usul faqat ilojsiz vaziyatlardagina qo'llaniladi. Rag'batlantirishning usullarini mohirona qo'llash ishigina o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlashi mumkin.

Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Shu xususda og'zaki savol-javob shakli an'anaviy usullardan biri hisoblanadi. Og'zaki savoldan javob o'quvchilarni hozirjavoblikka tayyorlaydi, mantiqiy javobni tezda fikran tayyorlab so'zlarda ifoda qilish ko'nikmasini hosil qiladi. Og'zaki savol-javob yakka-yakka va yoppasiga so'rash orqali amalga oshiriladi. Yakka o'quvchidan suralganida o'qituvchi o'quvchiga bir nechta-savol beradi. O'quvchining javoblaridan o'quv materialining qanchalik o'zlashtirilganligi ma'lum bo'ladi. Butunicha sinf yoppasiga suralganida o'qituvchi o'zaro mantiqiy bog'langan qator sinf oldiga qo'yadi, o'quvchilarni javob berishda aktivlikka chaqiradi. Og'zaki savol-javob o'quvchilar og'zaki nutq madaniyatini o'stiradi. Ularni so'zamollikka, ravon adabiy so'zlar ishlatib mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimlarni so'zlarda ifodalashga o'rgatadi.

Ko'p hollarda nazoratning yozma shakli o'quvchilar ichki sir-asrorlarini, kechinmalarini, yashirinib yotgan iste'dodlarini ochish imkonini beradi. Bu usul yozma sinovni 15-20 minut yoki butun dars davomida o'tkazilishi mumkin. Keyingi yillarda yozma ishlarning dasturlashtiriladigan shakli o'quv tarbiya jarayonida keng qo'llanilayapti. Bunda o'qituvchi savollar ro'yxatini to'zadi, ularning har biriga mumkin bo'lgan javoblarni taqlif qiladi, bu javoblarda bittasi to'laroq bo'ladi. O'quvchilarning vazifasi javoblar ichidan nisbatan to'laroq va aniqrogini tanlashdir. Shu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bush bo'lgan bolalar bilan

darsdan keyin alohida yakka tartibda shugullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tarika, hamma o'quvchilarni musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quvi, bir xilda oshib boradi va hamma bilan birgalikda qo'shiq kuylash ko'nikma va malakalari hosil bo'ladi.

### **Musiqa madaniyati darslarini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar**

Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan vokal-xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiq diapazoni o'quvchilar ovoziga mosligi, badiiy g'oyaviy mazmuni yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak. Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi.

- Qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy-g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining o'quvchilar yoshiga mosligi.
- Qo'shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug'at boyligiga mosligi va ularning nutqini o'stirish uchun xizmat qilishi.
- Qo'shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli), lad va tessitura, ovoz diapazoni o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi.
- Qo'shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.
- Qo'shiqning shakli, necha qismdan iboratliligi (1, 2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi), naqarotning mavjudligi.
- Qo'shiqni tanishtirishda o'qituvchi qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beradi.
- Qo'shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona vatan, mehr-muhabbat haqidagi g'oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg'otadi. so'ngra, qo'shiqni ifodali qilib, mayin ovozda ijro etib beradi. Qo'shiq mazmuniga mos tasviriy san'at suratlaridan yoki biror ko'rgazmali vositadan foydalanish kerak.
- O'quvchilar bilan qo'shiq mazmuniga va tuzilishiga xos savol-javoblar qilib, qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgatadi. so'ngra qo'shiq mazmuniga mos

musiqiy-ritmik harakatlar bilan o‘rgata boshlaydi. matn va ohang talaffuzining aniqligi ma’lum me’yorga tushgandan so‘ng, qo‘sinqning badiiy ijrosiga erishiladi.

- Qo‘sinqni vaqtı-vaqtı bilan takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni o‘quvchilar xotirasidan ko‘tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir darsda, ayniqsa, yangi qo‘sinqni o‘rgatishdan oldin, ilgari o‘rgatilgan qo‘sinqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi ayrim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasligi uchun qo‘sinq o‘rgatish shakllari o‘zgartirib turiladi. masalan: guruhlarga bo‘lib o‘rgatish, yakkaxon va xor jo‘rligida yoki musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib, bolalar ovoziga dam beriladi. Qo‘sinq mukammal o‘rgatilgandan so‘ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. shuningdek, dars shakllarini (noan’anaviy darslar) o‘zgartirib turish ham o‘quvchilar zerikishining oldini olib, qiziqishini kuchaytiradi. O‘quv yili davomida o‘quvchilarga 12-14 ta qo‘sinq o‘rgatiladi.musiqa savodini o‘tishga doir metodik tavsiyalar musiqa madaniyati darslari mazmunida o‘quvchilarning musiqa savodxonligini tarkib toptirish muhim maqsadlardan biri bo‘lib hisoblanadi. chunki, musiqa savodi musiqa darsining ta’limiy vazifasini bajaradi. musiqa savodi faoliyatining negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo‘yicha berilgan mavzularni savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. musiqa savodi — musiqa san’ati haqidagi boshlang‘ich tushunchalar tizimidan iborat. shuning uchun ham, musiqa savodi darsning mustaqil musiqiy faoliyati tarzida emas, balki butun dars davomida, ayniqsa, jamoa bo‘lib qo‘sinq kuylash va musiqa tinglash uchun asarlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘rganiladi. Musiqa savodi o‘quvchilar musiqa bilimining ongli takomillashuvida katta yordan beradi. musiqa savodining kaliti va pedagogik ahamiyati, tanlangan qo‘sinqlar va tinglashga doir asarlarni ongli ravishda idrok etib, ijro etish qoidalariga doir yangi tushunchalar hosil qiladi. Har bir darsda o‘quvchilarning musiqa haqidagi bilimlari boyib boradi. O‘quvchilarning musiqiy taasurotlari va tajribalarining o‘sishi, musiqani hayot bilan bog‘lashda va musiqaning eng oddiy qonuniyatları haqidagi bilim doiralarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham katta san’at hisoblanadi. insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojiana boshlaydi. Bola, musiqa madaniyati dars larining barcha faoliyatları jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi. ammo musiqa darslarining

musiqa tinglash qismi oldida, o‘ziga xos jiddiy vazifalar turadi. avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko‘ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo‘ladi. masalan: milliy cholg‘u asboblar ansambl, orkestr, xor, yakka cholg‘u, cholg‘u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida o‘quvchilarining badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko‘ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi.

- O‘quvchilarining idrokiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlarni tinglash.
- O‘quvchilarining musiqani idrok etish va musiqiy asarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Musiqa haqida boshlang‘ich ma’lumotlar berish, tinglangan asarlar nomlarini eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma’lum darajada baho bera olish.
- Musiqiy asarlarni ishtiyoy bilan tinglash va eslash, olgan taassurotlar haqida o‘ylash va fikr bildirish.
- Musiqa tinglashda turg‘un diqqat-e’tiborni va tinglash madaniyatini, boshlang‘ich elementlarni shakllantirish.
- Musiqiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asarlarni tinglash. boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqat-e’tibori uncha barqaror bo‘lmasligi sababli, ular yorqin yangraydigan kichik hajmdagi musiqiy asarlarni idrok etishga qodir bo‘ladilar. ular, ayniqsa, kichik hajmdagi qo‘shiqlarni yaxshi idrok etadilar, chunonchi, so‘z va ohang birligi musiqaning mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. shuning uchun musiqa o‘qituvchisi qo‘shiq aytganda yoki biror cholg‘u asarini ijro etganda, uning tanish ovozi, sof ohangi, ifodali ijrosi, mimikasi va ishoralari o‘quvchilarни maftun etishi lozim. shundagina, bolalarda bo‘ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish, qayg‘urish, o‘ylanish kabi holatlarni kuzatish mumkin. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishda o‘qituvchining qisqa, lo‘nda, mazmunli, qiziqarli kirish so‘zi, musiqa tinglash jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. musiqiy asarni tinglashdan oldin o‘quvchilarga ma’lumot berilsa, ular asarni to‘liq idrok etishga harakat qiladilar. musiqiy asarni ikki-uch mashg‘ulot davomida tinglash shart. chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi qirralari namoyon bo‘ladi va unga nisbatan qiziqishi va muhabbat ortib boradi.

yildan yilga o‘quvchilar o‘z yoshiga, bilim va malakalariga muvofiq, musiqiy asarni to‘la idrok etishga qodir bo‘ladilar.

#### **4. Qo‘sinq tanlash va uni o‘rgatish tamoyillari**

O‘quv yili davomida o‘quvchilar 12-14 ta asar tinglaydilar. Musiqali ritmik harakatlar bajarishga doir metodik tavsiyalar o‘quvchilarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o‘yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. bunda musiqa madaniyati darslarida, musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat:

- O‘quvchilarning musiqiy uquvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg‘usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur’ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog‘liq bo‘lgan musiqiy ohanglar bola xotirasida turg‘un saqlanadi;
- Raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to‘g‘ri o‘sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;
- Musiqiy asarlar o‘quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg‘otib, turlicha kay fiyatlar hosil etib, ularning ongida o‘ziga xos obrazlar yaratadiki, bolalar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar. Demak, musiqaga mos harakatlar o‘quvchilarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birga irodasini ham rivojlantiradi. masalan, marsh - o‘quvchida g‘ayrat va tetiklikni, raqs - ajoyib ichki his-tuyg‘ularni, kechinmalarni hosil etib, raqsga tushishga undaydi va zavqlantiradi. Musiqiy asarlardan marsh, raqs va o‘yinlar o‘quvchilarga tez ta’sir etadi, shuning uchun ham quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o‘yinlar har bir bolaning e’tiborini o‘ziga tortadi. Musiqa madaniyati darslarida bajariladigan o‘yinlar asosan ikki turga bo‘linadi:

1. Qo‘sinqning mazmuniga mos musiqali ritmik o‘yinlar.
2. Raqslar.
  - 1) Qo‘sinq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar qo‘sinqning badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalariga mos tushishi shart. Qo‘sinq mazmuni esa, ularning hayotiy tajribalarida, tabiat va hayvonot olami bilan munosabatlarida, xalq bolalar o‘yinlarida o‘z aksini topadi;

2) raqlar vositasida o‘quvchilar milliy va qardosh xalqlar raqs harakatlari va musiqasi bilan yaqindan tanishadilar. Raqs musiqasiga mos milliy harakatlarni bajaradilar. bunda o‘quvchilarning dunyoqarashi, aqliy va nafosat tarbiyasi, musiqiy xotirasi, ritm tuyg‘usi va diqqat-e’tibori rivojlanadi. Shunday qilib, musiqiy o‘yinlar o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra, didaktik o‘yinlarga mansub bo‘lib, asosan ritmik harakat vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishga doir metodik tavsiyalar musiqa madaniyati darslarida bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg‘ulotdir. bolalar cholg‘u asboblari jonli tovushli o‘yinchoqlar sifatida har bir o‘quvchini qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholg‘u asboblarida ritmik jo‘r bo‘lish, musiqaning xarakteri va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga xos emotsiyonal tuyg‘ular hosil etish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg‘u asboblaridan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga o‘quvchilarning darsga intiluvchanligini, qiziqishi va musiqiy uquvini (xotirasi, ritmni his etish tuyg‘usini, nutqini) o‘stiradi. bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishda, avval, o‘quvchilar chapak chalib, ritmik jo‘r bo‘ladilar, o‘qituvchi o‘quvchilar kuy-ritmini to‘g‘ri his etib ijro etishlari uchun, bolalarga stol ustiga terib qo‘yilgan cholg‘u asboblarida chalib, musiqaga jo‘r bo‘lishlarini aytib qo‘yishi lozim. so‘ng biror cholg‘uda kuyni o‘zi ijro etib, chapak bilan jo‘r bo‘lishni ko‘rsatadi. keyin barchani kuya chapak chalib, jo‘r bo‘lishni taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholg‘u asboblarini tarqatish uchun ilg‘or o‘quvchilarni tanlaydi. birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilib, yana bir takrorlab, chiroyli, to‘g‘ri ijro etiladi. so‘ngra musiqiy uquvi bo‘s sh bo‘lgan o‘quvchilarga bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishni taklif etadi. shu tarzda sinfdagi o‘quvchilarni galma-gal bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. cholg‘ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay musiqani to‘g‘ri his etishga va otirada saqlashga harakat qiladilar. keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. ayni holda sinfini ikki guruuhga bo‘lib, iguruh chapak chalib, iiguruh ovozda usul berish bilan ham jo‘r bo‘lishi mumkin. yana bir turi - o‘qituvchi doirada usulni aniq va tekis chalib turadi. “bum”ga iguruh bolalari “bak”ga iiguruh bolalari jo‘r bo‘lishadi. buni iloji bo‘lsa magnitofon tasmasiga yozib olib bajarsa ham bo‘ladi. shuningdek, kuyni doskaga

ko‘rsatilgan grafik sur’ati va uning ritmiga tuzilmasini teng chorak va nimchorak notalar bilan ifodalash mumkin, biroq kartochkalardan foydalanilsa ham bo‘ladi. bunday mashg‘ulotlarda dars mazmuni qiziqarli o‘tadi, o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va musiqiy o‘quv qobiliyatlarining har tomonlama rivojlantirishni ta’min etadi. musiqa darslarida bolalar cholg‘u asboblarini qo‘llash o‘qituvchidan katta mas’uliyat, ijodkorlik va topqirlilikni talab etadi.

## Xulosa

Bitiruv malakaviy ishimizning xulosasiga ko‘ra 5-7 sinflarda qo‘shiq kuylash malakalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari maktab musiqa madaniyati darsida musiqa tinglash faoliyatini metodik jihatdan samarali tashkil etish muhim pedagogik muammolardan biri ekanligini chuqur angladik.

Nazariy asoslash va amaliy tashkil etish yo‘li va usullari ko‘pgina musiqachi pedagog-olimlar, metodistlar, maktablarning ilg‘or o‘qituvchilari tomonidan asoslanib ko‘rsatib berilgan. Biroq hozirgi, kunda maktabda musiqa ta’lim tarbiyasi amaliyoti tahlili shundan dalolat beradiki o‘quvchilarga musiqa tinglash madaniyatini tarbiyalash ishida hali juda ko‘p, kamchilik hamda muammolar mavjudligini ko‘rsatadi va bu sohada juda ko‘p ishlashni talab etadi. Malakaviy ishimizda ta’kidlangandek Davlat ta’limi standartlarining ishlab chiqilganligi, musiqa madaniyati fanidan yangi dastur, darsliklar metodik qo‘llanmalar, tavsiyalarni yaratilishi ushbu muammoni hal etish o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Hozirgi zamon musiqa o‘qituvchisi yuksak madaniyatli o‘z kasbiga cheksiz sadoqatli, ilg‘or pedagogik tafakkur sohibi bo‘lmog‘i, o‘zining uzlucksiz kasbiy mahoratini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lishmuhimligi qayd etilgan. Shunday qilib musiqa darslarida o‘quvchilarning musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega pedagogik muammo ekan, biz bo‘lajak musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari dars faoliyatlarini to‘g‘ritashkil etib ayniqsa,musiqa tinglash bosqichiga alohida ahamiyat berishimiz lozim.

Buning uchun darsningmusiqa tinglash faoliyati ahamiyatini to‘liq idrok etib, o‘quv dasturiga kiritilgan asarlar mavzusi mazmunini o‘rganish uslublarini to‘liq o‘zlashtirishimiz talab etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari musiqiy tayyorgarligi, idrok etish qobiliyatlarini chuqur o‘rganib, o‘quv-tarbiya jarayonida ularni albatta hisobga olish maqsadga muvofikdir.

Ammo shuni ham uqtirib o‘tish joizki, maktab musiqa madaniyati darslarida tinglash faoliyatini tashkil etishda fan o‘qituvchisining pedagogik-psixologik, nazariy hamda amaliy metodik jihatdan, tayyorgarlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Ш.М.Мирзиёев Танқидий тахлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11
- 2.Ш.М.Мирзиёев Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент “Ўзбекистон” – 2017й.
- 3.Ш.М.Мирзиёев Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.
- 4.Ш.Мирзиёев Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаравонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016 й.
- 5.“Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. 1-илова: “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 8 февраль сони ва Интернет ресурс: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. И.А.Каримов “Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби” Тошкент 1997 йил.
7. И.А.Каримов “Баркамол авлод орзуси” Тошкент 1998 йил.
- 8.Йўлдошева С.Х. Ўзбекистонда мусиқа тарбияси ва таълим мининг ривожланиши. Тошкент - 1985.
9. Матёқубов О. Оғзаки анъанадаги профессионал мусиқа асосларига кириш. Тошкент - 1973.
- 10.Мусабекова С.И. Мусиқа тарбияси. Тошкент - 1973.
- 11.Омонуллаева Д. Мактабда мусиқа тарбияси методикасидан лексиялар курси. Тошкент - 1990.
12. Умумий ўрта таълим мактабларида мусиқа маданияти фани бўйича синов дастури ( 1-7 синифлар ). Тошкент - 1998.

13. Фолклор ансамбли (умумий таълим мактабларида ва мактабдан ташқари муассасаларнинг тўгарак раҳбарлари учун дастур). Тошкент - 1993.
14. Ўзбекистон Республикаси умумтаълим мактабларида мусиқа таълим – тарбияси. “Маърифат” газетаси 1992 йил 25 - ноябр.
15. Ҳасанов А. Ш. Мусиқа ва тарбия. Тошкент - 1993.
16. Мансуров А., Каримова Д. Мусиқа 5 - синиф учун дарслик. F. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 2001.
17. Бегматов А., Мамиров Қ. ва бошқалар. Мусиқа 6 - синиф учун дарслик. F. Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. Тошкент - 2003.

**ILOVA**  
**CHAMANDA GUL**

O'zbek xalq qo'shiligi

Tezroq

A musical score for 'Chamanda-gul' featuring six staves of music with lyrics in Korean. The music is in common time, treble clef, and includes dynamic markings like 'p' for piano and 'f' for forte. The lyrics are: Cha-man-da gul o-chi-lib-di(ya) chak-kang-ga taq, chak- kang-ga! Cha-man-da gul o-chi-lib-di(ya) chak-kang-ga taq, chak -kang-ga. Qo-shing-ni qo- ra qil-gan, (ey) Bog'-da-gi o's- ma -mi-kan (ey!) Cha-man-da gul o-chi-lib-di(ya) chak-kang-ga taq chak- kang-ga. Cha-man-da gul o-chi-lib-di(ya)

## **QASHQARCHA**

O'zbek xalq knigi

10

mf

1 3 1 1 3 1 2 1 1

f (p)

1 3 1 2 1

# GULXAN

*D. Zokirov qayta ishlagan*

O'rlacha, shoshilmay

The musical score consists of seven staves of music for a single instrument, likely a stringed instrument or a flute. The music is written in common time (indicated by 'C') and uses a treble clef. The key signature changes from no sharps or flats in the first two staves to one sharp in the remaining five staves. The dynamics are indicated as follows: *mp* (mezzo-forte) for the first two staves, *f* (forte) for the third staff, and *p* (pianissimo) for the last four staves. The music features various note heads, stems, and bar lines, with some notes having horizontal dashes through them.



## QARI NAVO

Ozbek xalq kuy


March sur'atida

The musical score consists of four staves of music. The first three staves are in common time (indicated by a 'C') and the fourth staff is in 2/4 time (indicated by a '2'). The key signature is one sharp. The music features eighth and sixteenth note patterns. The third staff includes a dynamic marking 'mf'.

## NORIM – NORIM

Marsh sur'atida

O'zbek xalq kuyi



# KAKKU

A. Rahmat she'ri

H. Muhamedova musiqasi

O'rtacha tex

Xor:

Kuz ku-ni biz-lar da-la-ga chiq-dik.  
Yakkaxon

Ba-land da-raxt-da bir qush-ni ko'r-dik. U yay-rab say-

rar. Kak-ku, kak-ku!

Xor:

Bu qush-ning no-mi shu-ning-chun kak-ku.

Kuz kuni bizlar  
Dalaga chiqdik.  
Baland daraxtda  
Bir qushni ko'rdik.  
Na q a r o t:  
U yayrab sayrar:  
«Kakku-kakku».  
Bu qushning nomi  
Shuning-chun kakku.  
  
Kakku yashaydi  
Ko'm-ko'k o'rmonda.  
Kakkuday qushlar  
Ko'p bo'lar unda.



## GUL TERAMIZ

I. Muslim she'ri

Ik. Akbarov musiqisi

O'rtacha tex

Qish ke- tib, ba- hor kel- di, gul- lo- la- lar  
 te- ni- miz, Qo'- zi- lar cho- pib- yel- di,  
 bar- m o't- lar be- ra- miz, Qo'- zi- lar cho-  
 pib- yel- di, bar - na- o't- lar be- ra- miz.

Qish ketib, bahor keldi,  
 Gul-lolalar teramiz.  
 Qo'zilar chopib-yeldi,  
 Barra o'tlar beramiz.

Gulni tanlab olamiz,  
 Maktabga keltiramiz.  
 Tuvaklarga o'tqazib,  
 Biz parvarish qilamiz!



## LAYLAK QOR

*Ye. Is'hoqov she'ri*

*S. Abramova musiqasi*

Tezroq



Lay-lak qo-ru lay-lak qor, lay-lak qor-ga men xush-tor.



Kiy-di-rar keng da-lam-ga oq i-pak-dan ko'y-lak qor,



Kiy-di-rar keng da-lam-ga oq i-pak-dan ko'y-lak — qor.

## SOATIM

*X. Yoquibov she'ri*


*S. Abramova musiqasi*



Chiq-chiq, chiq-chiq so-a-tim chiq-chiq.



Sak-kiz bo'l-di-mi qa-rang Sak-kiz-ga ur-di qa-rang.



Chiq-chiq chiq-chiq, so-a-tim chiq-chiq.

## KICHKINTOYMIZ — GIJINGTOYMIZ

P. Ma'min she'ri

O'rtacha tez.

Do's-ti-miz ko'p, O-ti-miz cho'p.  
Lof qil-may-miz, Chop-qil-lay-miz.  
Kich-kin-toy-miz — Gi-jing-toy-miz,  
Kich-kin-toy-miz — Gi-jing-toy-miz, Xi-xi-xi!  
Kich-kin-toy-miz, Gi-jing-toy-miz.  
Kich-kin-toy-miz — Gi-jing-toy-miz xi-xi-xi! xi-xi-xi!

K. Kenjayev musiqasi

Hazillashib,

"Hazillashib"

Quvnashamiz,

Quvlashamiz,

Bizlar har kun,

O'sib durkun,

Hech qo'rqlaymiz,

Kuch to'playmiz!

Kichkintoymiz —

Gijingtoymiz,

Xi-xi-xi!

Kichkintoymiz —

Gijingtoymiz,

Xi-xi-xi!

# ONAJONIM

*I. Nurbek she'ri*

*S. Abramova musiqasi*

**Kuychan**

Qo'-shiq aysam shod-li- gi-dan bag'-ri- gii bo- sib,  
 Har xil ki-yim, do'p-pl ti-kar men-ga mu-no- sib.  
 Uy-qum kel-sa, al-la ay-tib tu-rar bo-shim-da,  
 O-dim-la-sam, bir-ga-bir-ga yu-rar qo-shim-da.  
 O-na - jan, meh-ri- bon-gi-nam.  
**Tamomlash uchun**  
 O- na- jan, meh-ri- bon-gi-nam.

Qiziq-qiziq ertak aytib,  
 So'zlab muloyim,  
 Katta qildi oq sut berib,  
 Erkalab doim.

**Totli ovqat tayyorlaydi**  
**Ochiqsa qornim,**  
**Munchalar ham menga g'amxo'r,**  
**U bebahoyim.**  
**Onajon, mehribonginam.**

## HAKKALAR

*N. Olibjanov she'ri*

Quvnoq

*mf*

O- in qa- not hak-ka- lar. shox- dan shox-ga  
 qo'-na- siz. chi- g'ir- chig'-lab ni- ma(ni)-dir  
 iz- lab top- gan bo'-la-siz. Te- rak-lar-ning u-chi-dan  
 siz- ga bo- qar po-la- pon. Qa-mish- zor- lar  
 i- chi- dan un- ga qa- rab qo- lu- man.

Teraklarning uchidan  
 Sizga boqar polapon.  
 Qamishzorlar ichidan  
 Unga qarab qolaman.

Shoshqaloqlab tumshug'in  
 Siz tomonga tutadi.  
 Hali yosh, yo'l-yo'rig'in  
 Topmay najot kutadi.

*N. Norxo'jayev musiqasi*

Uni boqish farzingiz,  
 Yurmang muncha hakkalab.  
 Boshqalardan farqingiz  
 Yengiltaksiz, hakkalar.

Ola qanot hakkalar,  
 Shoxdan shoxga qo'nasiz.  
 Chig'irchig'lab nima(ni)dir  
 Izlab topgan bo'lasiz.



**Nota bilan kuylaymiz**  
**CHUMCHUQCHA**

*Sh. Sa'dulla she'ri  
Tezroq*

*B. Giyenko musiqasi*

Hay-hay, chum-chueq, jaj-ji qush, shox-da tur-ma, past-ga tush.  
 Er-ta-yu kech tin-may-san, char-chash ni-ma bil-may-san.



„YALLAMA YORIM“ kuyiga chapak chalib jo'r bo'lamiz.



„QARI NAVO“ kuyiga shahdam qadam tashlab jo'r bo'lamiz.